

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

N.T. O'RMONOV, A.N. XAMZAYEV

**O'ZBEKİSTONDA MULKIY
ISLOHOTLAR NAZARIYASI VA
AMALIYOTI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5231900-korporativ boshqaruv bakalavriat
ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*

TOSHKENT – «IQTISODIYOT» – 2019

UO‘K: 238 (156.64.72)

KBK 68.406.3

K 93

Yo-15

O‘rmonov N.T., Xamzayev A.N. O‘zbekistonda mulkiy islohotlar nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 173 bet.

O‘quv qo‘llanma mazkur fan bo‘yicha ma’ruza mavzularininig tayanch konspekti, mustaqil ta’limga oid topshiriqlar, oraliq nazoratga oid o‘quv loyihalarining namunaviy mavzulari, yakuniy nazoratga oid namunaviy savollar va topshiriqlar, har bir mavzu bo‘yicha talabalarning mustaqil ishlashi uchun zarur bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxatini hamda glossariylarni o‘z ichiga olgan bo‘lib u 5231-900-korporativ boshqaruv bakalavriat ta’lim yo‘nalishining “O‘zbekistonda mulkiy islohotlar nazariyasi va amaliyoti” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

В учебное пособие представлен базовый обзор темы лекций по этому предмету, задания для самостоятельного обучения, примерные темы учебного плана для промежуточного контроля, примерные вопросы и задания для итогового контроля, студенты Включает список литературы и глоссариев, которые требуются для самостоятельной работы, и рекомендуется в качестве учебника по «Теория и практика реформы собственности в Узбекистане» в рамках корпоративного бакалавриата 5231900.

The manual provides a basic overview of the topic of lectures on this subject, tasks for self-study, sample topics of the curriculum for intermediate control, sample questions and tasks for final control, students Includes a list of literature and glossaries that are required for independent work, and is recommended as textbook on “Theory and practice of property reform in Uzbekistan” within the framework of corporate undergraduate 5231900.

Taqrizchilar: 1. TDTU “Korporativ boshqaruv” kafedrasi i.f.n.,dots. R.Xusainov
2. TDIU “Korporativ boshqaruv” kafedrasi mudiri i.f.n.,dots.
M.G. Umarhodjayeva

ISBN: 978-9943-05-691-6

UO‘K: 238 (156.64.72)

KBK 68.406.3

K 93

Yo-15

© «IQTISODIYOT», 2019.
© N.T. O‘rmonov, A.N. Xamzayev, 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....		7
1-bob. FANNI O'RGANISH XUSUSIYATLARI		9
1.1.	Fanning o'rganishdagi maqsad va vazifalarning belgilanishi.	9
1.2.	Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalarning iqtisodiy-nazariy tavsifi	10
1.3.	Mulkiy munosabalarning institutsional tavsifi.	14
1.4	O'zbekistonda intelektual mulk himoyasining kafolatlanishi.	14
2-bob. MULKIY ISLOHOTLAR AMALIYOTIDAGI USUL VA USLUBLAR		20
2.1.	Mulkiy islohotlar yo'naliishlarining guruhlanishi.	20
2.2.	Xususiylashtirish usullari va bosqichlari.	24
2.3	Harakatlar strategiyasida mulkiy islohotlarning rivojlantirilishi	28
2.4	Turli mulkchilik usullarida bo'lgan ayrim korxonalardagi uzoq muddatli taxliliy ishlar.	31
3-bob. MULKIY ISLOHOTLARNING MILLIY MODELI VA YANGI ASR STRATEGIYASI		34
3.1.	Davlat mulki yakkahokimligiga barham berishning milliy xususiyatlari.	34
3.2.	O'tish davri tavsifi va uning milliy xususiyatlari	37
3.3.	Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari	39
3.4.	Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar	41
4-bob. O'ZBEKISTONDA XUSUSIYLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI		45
4.1.	Davlat mulki obyektlarini guruhlashdagi xususiyatlari (PQ-2200).	45
4.2.	Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishni soddalashtirish.	47
4.3.	Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlar-VM-279-06.10.2014	51
4.4.	Xususiylashtirishning bosqichma-bosqichliligi, uzviyligi.	53

	Vaucherlashtirishdan voz kechish zaruriyati	
5-bob.	KO‘P UKLADLI IQTISODIYOTNI TASHKILIY-HUQUQIY VA BOSHQARUV SHAKLLARI	57
5.1.	Davlat, davlat ulushi bo‘lgan va unitar korxonalar tavsifi	59
5.2.	Xususiy tadbirkorlik subektlari tavsifi	61
5.3.	Qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subektlari tavsifi	62
5.4.	Nodavlat notijorat tashkilotlar tavsifi	64
6-bob.	MULKIY ISLOHOTLARDA BIRJA FOLIYATINING O‘RNI	67
6.1.	Birja foliyati va qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional asoslari	67
6.2.	Davlat (dxarid.uzex.uz) buyurtmasi , davlat va korporativ xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish (VM-166- 11.06. 2013).	70
6.3.	O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi (uzex.uz) faoliyati tavsifi.	72
6.4.	«Toshkent» Respublika fond birjasi Aksiyadorlik jamiyati faoliyati (http://www.uzse.uz/). (№ PQ-1727-19.03.2012)	73
6.5.	“Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi” davlat korxonasi faoliyati tavsifi.	77
7-bob.	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO‘CHMAS MULK OBYEKTLARINI TASNIFlash	81
7.1.	Tijorat maqsadlarida foydalanilayotgan ko‘chmas mulk obyektlari	81
7.2.	Ijtimoiy soha ko‘chmas mulk obyektlari va ulardan foydalanish	85
7.3.	Davlat tassarufidagi ko‘chmas mulkni boshqarish tizimi	86
7.4.	Ko‘chmas mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish tajribasi	87
8-bob.	XUSUSIY MULKNI HIMoya QILISH VA MULDORLARNING KAFOLATLARI	88
8.1.	Mulkiy munosabatlarni takomillashtirishda davlatning o‘rni.	88
8.2.	Milliy iqtisodiyotda xususiy mulk salmog‘i dinamikasidagi tendensiyalar.	90
8.3.	O‘rta mulkdorlar qatlaming shakllanishi va rivojlanishi.	90
8.4.	Xususiy mulkni himoya qilishning institutsional asoslari.	91

8.5.	Xususiy mulkni himoya qilish usullari.	92
8.6.	Mulkdorlarlarning kafolatlari	94
9-bob.	MULKIY ISLOHOTLAR BOSQICHLARIDAGI VAKOLATLI ORGANLAR TAVSIFI	96
9.1.	Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil qilinishi.	96
9.2.	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi.	97
9.3.	O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi faoliyati.	99
9.4.	Mulkiy islohotlar bosqichlaridagi vakolatli organlar faoliyatining takomillashuvi.	99
10-bob.	DAVLAT MULKIDAN SAMARALI FOYDALANISH	101
10.1.	Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatining tashkil etilishi.	101
10.2.	Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish.	103
10.3.	Davlat unitar korxonalari.	104
10.4.	Mulkni davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga bepul o'tkazish.	106
10.5.	Xususiylashtirilgan korxonalarning ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish vakolati.	107
11-bob.	DAVLAT MULKI OBYEKTLARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH	109
11.1.	Davlat korxonalari va muassasalarini xo'jalik jamiyatlariga aylantirishning takomillashtirilishi	109
11.2.	Davlat aksiyalari va ulushlarini sotishning takomillashtirilishi	110
11.3.	Davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning qabul qilinishi	111
11.4.	Tender savdolarini o'tkazishning takomillashtirilishi	112
11.5.	Xaridorlar tomonidan tanlov va ochiq savdolardagi oldi-sotdi shartnomalari bajarilishi nazorati	113

12-bob. KO`CHMAS MULKNI BAHOLASH VA RIELTORLIK FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI					116	
12.1.	Ko`chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari va huquqiy – me'yoriy asoslari.					116
12.2.	Ko`chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari					119
12.3.	Rieltorlik faoliyatining amalga oshirish					120
13-bob. IQTISODIYOTDA XUSUSIY MULKNING ULUSHI					123	
13.1.	Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushini oshirishning ahamiyati					123
13.2.	Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish bo`yicha chora tadbirlarning zarurligi					124
13.3.	Xususiy rivojlantirish mexanizmi					126
14-bob. XUSUSIY MULKNI, TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISHNI YANADA KUCHAYTIRISH, ULARNI JADAL RIVOJLANTIRISH					128	
14.1.	Xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo`lidagi to`sinqlarni bartaraf etishga qaratilgan normalarning ahamiyati.					129
14.2.	O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi Farmoni.					133
14.3.	2017–2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo`nalishida “xususiy mulkni va tadbirkorlik subyektlarni” rivojlantirish.					138
15-bob. KORPORATIV BOSHQARUVNI JORIY ETISH – MULKIY ISLOHATLAR SAMARADORLIGININING BOSH MEZONI.					142	
15.1.	Korporativ boshqaruv tushunchasining tavsifi.					142
15.2.	Xo`jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga o`tish zaruriyati.					144
15.3.	Minoritar aksiyadorlar vakolatlarining mustahkamlanishi.					146
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI					168	

KIRISH

Bozor islohotlari - davlatning bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta’minlashga qaratilgan ijtimoi, iqtisodiy choratadbirlari tizimi, iqtisodiy islohotlarnint tarkibny qismi. Bozor islohotlari totalitar rejali iqtisodiyot hukmron bo‘lib kelgan sobiq sotsialistik mamlakatlarda bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta’minlaydi. Bozor islohotlari jamiyatning iqtisodiy tuzumida tub o‘zgarishlarga olib keladigan bir qancha yo‘nalishlarda olib boriladi.

Mulkiy islohotlar. Bunda mulkchilik munosabatlari o‘zgartirilib, davlat mulki monopoliyasi tugatiladi, uning hisobidan boshqa mulklar, xususan jamoa mulki, hissadorlik mulki va xususiy mulk rivojlanadi; Agrar islohotlar. Yerga egalikqilish, xo‘jalik yuritish usullarini o‘zgartirish, yerni turli mulk ob’yektiga aylantirish, qishloqni fermerlashtirish, tomorqa xo‘jaligini kengaytirish, ijara munosabatini rivojlantirish choratadbirlari o‘tkaziladi. Agrar islohotlar pirovardida bozor iqtisodiyoti talablariga moye keladigan agrar tuzilmani yuzaga keltiradi. Moliya-kredit islohotlari.

Moliya-kredit tizimini bozor talablariga binoan qayta qurish, byudjet tuzilmasini o‘zgartirish, pul islohotini o‘tkazish, tijorat banklari va mayda kredit tashkilotlari ochilishini, shuningdek yangicha valyuta munosabatlariga o‘tish maqsadlarini ko‘zlaydi. Infratuzilma islohotlari. Bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi intlar (muassasa, tashkilot, idoralar)ni tashkil etishni bildiradi, bular jumlasiga birjalar, brokerlik idoralari, trast kompaniyalari, banklar, sug‘urta kompaniyalari, auditorlik firmalari kabilar kiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar islohotlari.

Ularga mamlakat milliy iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga qo‘shilishini ta’minlaydigan chora-tadbirlar, jumladan eksport va import, bojxona siyosati, chetdan qarz olish, xorijiy moliya tashkilotlari bilan aloqa o‘rnatish, chetga kapital, ish kuchi chiqarish va boshqalarga oid choratadbirlar kiradi. Sotsial (ijtimoiy) islohotlar. Daromadlarni davlat ishtirokida taqsimlash, aholini qimmatchilikdan himoya qilish, aholining nochor qatlamlariga yordam berish, ishsizlik nafaqasini joriy etish, pensiya, sotsial sug‘urta fondlari, turli xayriya jamg‘armalarini uyushtirishga taalluqli choratadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng suquqligini va haqiqiy jihatdan baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Hukumatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi №PF-4947 sonli Farmoning iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ta'kidlaganidek, 3.4.-bandida - "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish"¹.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, 70 modda.

1-bob. FANNI O'RGANISH XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1.1. Fanning o'rganishdagi maqsad va vazifalarning belgilanishi.**
- 1.2. Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalarning iqtisodiy-nazariy tavsifi**
- 1.3. Mulkiy munosabalarning institutsional tavsifi.**
- 1.4. O'zbekistonda intelektual mulk himoyasining kafolatlanishi.**

Mashg`ulot maqsadi: Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalar bo`yicha umumiylashtirilgan tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o'rganish natijasida talaba:

- Fanning o'rganishni maqsad va vazifalarini aytadi;
- Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalarning iqtisodiy-nazariy tavsifilarini aytadi va tavsif beradi;
- Mulkiy munosabalarning institutsional tavsifini bayon etadi;
- O'zbekistonda intelektual mulk himoyasining kafolatlanishining bosqichlarini sanab beradi.

1.1. Fanning o'rganishdagi maqsad va vazifalarning belgilanishi

• Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda mulkiy islohotlar tizimini boshqarishda zarur bo'lgan zamonaliviy milliy andozalarga javob beradigan nazariy-amaliy professional bilimlarni shakllantirish hamda mustahkamlashga qaratilgan.

• Fanning vazifalari - mulkiy islohotlar siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlarini o'rganish; islohotlar tizimini boshqarishni huquqiy-me'yoriy asoslari bo`yicha nazariy bilimga va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish; shakllangan ijtimoiy va kasbiy tajriba asosida mulkiy islohotlar mohiyatini o'rgatishdan tashkil topadi.

• Subyekt –iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish salohiyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs, tashkiliy tuzilma, davlat;

• Obyekt –iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan hodisa, harakat, faoliyat, jarayon va munosabatlar turkumi tadqiq etiladigan subyekt;

- Predmet – subyekt tomonidan tadqiqot obyektidagi muammo va masalalar echimini topish, barqaror va samarali xo‘jalik yuritish uchun muayyan mezon bo‘yicha tanlangan hodisa, harakat, faoliyat, jarayon va munosabatlar turkumi.
- Fanning mazmuni: – ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish; ko‘chmas mulkni tasniflash, baholash va rieltorlikni ta’minlash; xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlarni kafolatlash; davlat mulkidan samarali foydalanish; davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish; xususiy mulk ulushi va ahamiyatini oshirish; tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirish; o‘zaro manfaatli korporativ boshqaruv tizimini joriy etish kabi mulkiy munosabatlar tizimidan iborat.

1.2. Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalarning iqtisodiy-nazariy tavsifi

- Mulk tushunchasini o‘rganishdan oldin iqtisodiy ehtiyoj va ne’matga ta’rif berish kerak.
- Ehtiyoj-shaxs(korxona, davlat)ning faoliyat ko‘rsatishi, rivojlanishi va kamol topishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan narsa, xodisa, harakat , faoliyat, jarayon va munosabatlar tizimidir. U birlamchi va ikkilamchi, real va noreal ehtiyojlarga turkumlanadi.
- Iqtisodiy ehtiyoj - shaxs(korxona, davlat)ning faoliyat ko‘rsatishi, va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan va naf keltiradigan narsa, xodisa, harakat , faoliyat, jarayon va iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Iqtisodiy ehtiyoj-iqtisodiy faoliyatga undaydigan ichki kuch hisoblanadi.
- Ehtiyojni qondirish vositasiga ne’mat deyiladi. ne’matlarning noyobligi nuqtai nazaridan cheklangan va cheklanmagan hisoblanadi.
- Ne’matlarning nafliligi bilan bir qatorda noyobligi, ularning muayyan sharoitdagi qadriyatini belgilaydi.
- Ya’ni, naflilik va noyoblik iqtisodiy ne’mat shakllanishiga asos bo‘ladi. O‘z navbatida iqtisodiy ne’mat iqtisodiy faoliyat predmeti hisoblanadi.
- Mulk ham iqtisodiy ne’mat sifatida o‘rganiladi.

- Mulk — bu turli-tuman iqtisodiy ne'mat(obyekt)larning subyektga mansubligini bildiradi
- Mulk munosabatlarining mavjud bo'lishiga sabab ana shu ne'matlarning, umuman olganda, resurslarning noyobligi - cheklanganligidir.
- Yanada to'laroq ta'riflaydigan bo'lsak, ne'matning nafliligi, noyobligi va muayyan subektga mansublididan iborat uchta jihatni hisobga oladigan yaxlitlik mulk tushunchasini ifodalaydi.
- Demak ne'matlar mulkka aylanishi uchun muayyan subekt tomonidan o'zlashtirilishi talab etiladi.
- Mulkiy munosabatlar - subektning obektga, mulkchilik munosabatlari subektlar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Mulkchilik talqinlari turkumlanishi²

<i>Mulkchilik talqinlari turkumlanishi</i>	
<i>Turkum nomi</i>	<i>Asosiy belgilar</i>
Klassik yo'nalish	Daromad keltirish kobiliyati mujassamlashgan sarmoya
Faylasuflar va neoklassiklar	Tashqi dunyo obyektlar ustidan nazoratni ularni o'zlashtirib (egallab) olish asosida amalga oshirish
Dialektik usul tarafдорлари	Shaxsning tabiatdan ham, ijtimoiy hayot jamoatchiligidan ham begonalashishida hamda ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish vositasidan ajratishda namoyon bo'lувчи ijtimoiy aloqalarni tarkiblash, murakkablashtirish shakli
Nemis tarixiy maktabi	Ijtimoiy o'zaro hamkorlikning asosiy tamoyili hisoblangan axloq normasida jamiyat tomonidan olyi va muqaddas qadriyat hamda individ mustaqilligining kafolati sifatida tan olish

² Мулкчилик ҳукуқлари назарияси асосчилари америкалик иқтисодчилар Р.Коуз(Ronald Harry Coase; 29.12.1910 – 02.09.2013)

Bir guruuh iqtisodchilar, mulkchilik (mulk munosabatlari)ni mulk subyektining mulk obyektiga bo‘lgan munosabati tarzida talqin etishsa, boshqa guruhdagilar esa ko‘proq subyektlar o‘rtasidagi munosabatlar tarzida talqin etiladi.³

<i>Turkum nomi</i>	<i>Asosiy belgilar</i>
Neoinstitutsional yo‘nalish	Turli shaxslar o‘rtasida bir buyumda turli hukuklarning namoyon bo‘lish imkoniyati, buyumga karashli vakolatlar tutami
Hukuqshunoslar	Shaxsning buyum ustidan hukumronligi va boshqa shaxslar imkoniyatlarini cheklash
Sotsiologlar	Iqtisodiy bo‘ysundirish asosida ijtimoiy ierarxiyanı o‘rnatish usuli
Ernando de Soto (Peru)	Qiymatga aylanishda ishtirok etish va daromad keltirish kobiliyatı

Iqtisodiy ne’matni xo‘jalik yuritish uchun ishlatish hamda subyektlar o‘rtasida o‘zlashtirish jarayoni *iqtisodiy ma’nodagi* real mulkchilik munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Ya’ni, iqtisodiy ne’matni o‘zlashtirish jarayoni - egalik qilish, naflanish(foydalanish) va tasarruf etish yaxlitligidan iborat.

Boshqacha aytganda mulkchilik munosabatlari – bu iqtisodiy ne’matga nisbatan egalik, naflanish va tasarruf etishdan tashkil topadi.

Har bir subekt uchun davlat tomonidan majburiy tartibda qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan va rasmiylashtirilgan yo‘l-yo‘riqlar mulkning huquqiy maqomini ifodalaydi.

SHu o‘rinda *Tom Betellning “Mulk va farovonlik”* asari milliy mulkiy islohotlarni o‘rganishda muhim tayanch bo‘lishi mumkinligini ta’kidlash lozim.

³ Мулкчилик ҳукуклари назариясининг асосчилари америкалик иқтисодчилар Р.Коуз(Ronald Harry Coase; 29.12.1910 – 02.09.2013)

Chunki mazkur kitobda Qadimgi Rim davridan hozigi kungacha insoniyat boshidan o‘tgan mulkiy islohotlar evolyusiyasi tavsiflanadi.

Masalan, mazkur kitobdan quyidagi fikrni keltirish mumkin:

Xususiy lashtirilgan mulk va uning ustuvorlik tamoyili hukmron bo‘lsa, qachon har bir kishi, shu jumladan, hokimlarning o‘zлari qonunlarga bir xil bo‘ysunganda iqtisodiyot va madaniyat gullab-yashnaydi.

Mol-mulk bo‘yicha barcha mumkin bo‘lgan konfiguratsiyalardan faqat xususiy mulkkina kerakli samara berishi mumkin.

YAna bir diqqatga sazovor jihat Sobiq ittfoq davridagi mulkiy eksperiment va uning oqibatlari dalillar bilan bayon etiladi.

Mulkchilik hukuklari nazariyasi namoyondalari mazkur muammoni tadqiq etishdagi ikkita o‘ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi.

Birinchidan, ular o‘z tadqiqotlarida odatdagи «mulkchilik» tushunchasini emas, balki «mulkchilik hukuklari» tushunchasini qo‘llaydilar.

Ularning fikricha, resursning o‘zi mulk hisoblanmaydi, balki resursdan foydalanish bo‘yicha hukuklar to‘plami yoki ulushi mulkchilikni tashkil etadi.

O‘zbek iktisodchi olimlari A.O‘lmasov, A.Voxobov, D.Tojiboeva, M.Rasulov, SH.SHodmonovlar xam mulkchilik munosabatlariga turlicha ta’riflar berishgan.

Jumladan, prof. D.Tojiboeva ta’kidlashicha mulkchilik yagona bir butunlik bo‘lib, uning elementlari egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishdan iborat desa,

prof. A.O‘lmasov «Mulkchilik munosabatlari jamiyatidagi boyliklarni o‘zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir

Mulkchilik o‘zlashtirish borasidagi munosabat bo‘lar ekan, u egalik kilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi.

Mana shu uch jihat mulkchilikning ajralmas unsurlaridir»2 deb ta’kidlagan. Prof. M.Rasulovning fikricha «Mulk moddiy va boshqa boyliklardan foydalanish sharoitlari, munosabatlari, egalik kilish, o‘zlashtirish mazmunini o‘z ichiga oladi.

Mulkka egalik ko‘proq boylikka ega bo‘lish va u bilan bog‘liq barcha sharoitlarni qo‘lga kiritishdir».

Prof. SH.Shodmonov va dots. U.V.G‘afurov «Mulkchilik munosabatlari - bu mulkka egalik kilish, foydalanish, tasarruf etish va o‘zlashtirish jarayonlarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardir» deb ko‘rsatganlar.

Shuningdek, «mulkka egalik kilish va uni tasarruf etish, muayyan iqtisodiy munosabatlarni paydo etadi va u mulkchilik munosabatlari deb ataladi».

1.3. Mulkiy munosabalarning institutsional tavsifi

Institut so‘zining ma’nosи jamiyat subektlarining o‘zaro hamkorlik munosabatlarini belgilaydgan va bajarilishini nazorat qiladigan rasmiy va norasmiy me’yoriy qoidalar majmuasini anglatadi.

Mulkchilikning institutsional asoslari deganda –mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan rasmiy va norasmiy me’yoriy qoidalar tushuniladi.

Konstitutsiyamizning III bo‘l.(J.va sh.), XII bob(J . Iqt . Neg.) gi 53-moddasida:

Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va haqiqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.⁴

Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

1.4. O‘zbekistonda intellektual mulk himoyasining kafolatlanishi

Intellekt tushunchasining mohiyati

INTELLEKT- (Lot.: -intellektus – aql-idrok, tushunish, anglash, fahm) – inson(individuum)ning zakovat, iste’dod kabi aqliy mushohada yuritish qobiliyatları tizimi.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституциямизнинг III бўл.(Ж.ва ш.), XII боб(Ж . Иқт . Нег.) ги 53-моддасида:

- Atrof-muhitdagi vaziyatni tezkor anglash,
- dolzarb muammolarni ajrata olish va ziddiyatsiz hal etish
- o‘z harakatining oqibatlarini oldindan ko‘ra olish,
- mas’uliyat bilan yondoshish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Aks holda- ksenofobiya- qo‘rquv, atrofni nafrat, xavfli va dushman sifatida salbiy idrok etish namoyon bo‘ladi.

Intellektual mulk tushunchasi va obyektlari - intellektual mulk insonning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan adabiy, badiiy, san’at asarlari va sanoat namunasidir. Ijodiy faoliyat, o‘z navbatida, inson tafakkuri mahsuli hisoblanadi. SHu bois intellektual faoliyat ishtirokchilari – mualliflar fuqarolik-huquqiy munosabat-larning eng faol subyektlaridir.

«Intellektual mulk» tushunchasi dastlab 1967- yil 14- iyuldaggi «Butunjahon intellektual mulk tashkiloti(BIMT)ni tashkil etish to‘g‘risida»gi Stokholm konvensiyasida ilgari surilgan. Mazkur konvensiya intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, uning tarkibi, ya’ni obyektlarini ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko‘rsatib berdi.

Xalqaro kitob va mualliflik huquqi kuni (23 aprel)

Xalqaro intellektual mulk kuniga (26 aprel)

Intellektual obyektlarining guruhanishi:

1) *intellektual faoliyat natijalari:*

Fan, adabiyot va san’at asarlari;

Ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko‘rsatuvlari yoki eshittirishlari;

Elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda ehm deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma’lumotlar bazalari;

Ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

Seleksiya yutuqlari;

Oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) *Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:*

Firma nomlari;

Tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari);

Tovarlar chiqarilgan joy nomi;

3) va boshqalar.⁵

Obyekt(asar)lar shakllari:

Yozma (qo‘lyozma, mashinkalangan yozuv, notali yozuv va hokazo);

Og‘zaki (omma oldida so‘zlash, omma oldida ijro etish va hokazo);

Ovozli yoki video yozuv (mexanik, magnitli, raqamlı, optik va hokazo);

Tasvir (rasm, eskiz, manzara, tarh, chizma, kino-, tele-, video- yoki fotokadr va hokazo);

Hajmlı-fazovi (haykal, model, maket, inshoot va hokazo);

G‘oya(prinsip, uslub, jarayon, tizim, usul yoki konsepsiya)larga emas, balki ifoda shakliga nisbatan M.h. tatbiq etiladi.

Maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat’i nazar bironbir obyektiv shaklda bo‘lgan oshkor qilingan(qilinmagan) fan, adabiyot va san’at kabi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lgan asarlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Obyektlarning turlari(1042-m.):

Adabiy asarlar (adabiy-badiiy, ilmiy, o‘quv, publisistik va boshqa asarlar);

Dramatik va ssenariy asarlar;

Matnli va matnsiz musiqa asarları;

Musiqlı-dramatik asarlar;

Xoreografiya asarları va pantomimalar;

Audiovizual asarlar;

Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, dizayn asarları va b. tasv. S.an’at asarları;

Manzarali-amaliy va sahna bezagi san’ati asarları;

Arxitektura, shaharsozlik va bog‘-park barpo etish san’ati asarları;

Fotografiya asarları va fotografiyaga o‘xshash usullarda yaratilgan asarlar;

⁵ Ўзб. рес-нинг фуқаролик кодекси(фк) иккинчи қисм ін бўлим. интеллектуал мулк(59-65б., 1031-1111м.)

Jo‘g‘rofiya, geologiya xaritalari va boshqa xaritalar, jo‘g‘rofiya, topografiya va boshqa fanlarga taalluqli tarhlar, eskizlar va asarlar;

Barcha turdagи elektron-hisoblash mashinalari (EHM) uchun dasturlar, shu jumladan amaliy dasturlar va operatsiya tizimlari;

Boshqa asarlar([1041-modda](#) talablariga javob beruvchi).

3. Intellektual mulk obyektlarining himoyalanishi

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi, Fuqarolik Kodeksi,Jinoyat Kodeksi

2. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida“

3. "Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida“

4."Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida“

5. “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida“

6. "Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to‘g‘risida“

7. "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida“

8. "Firma nomlari to‘g‘risida"

9. Manba: <http://ima.uz>

Intellektual mulk obyektlarini himoyalash vakolati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2016- yil 20- oktyabrdagi PQ-2637-son [qarori](#)

O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi to‘g‘risida NIZOM

(Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- noyabrdagi 394-son qarori)

O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligini tashkil etish to‘g‘risida» 2011- yil 24- maydagi PQ-1536-son [qarori](#):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2010- yil 20- dekabrdagi PQ-1444-son

qaroriga muvofiq hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayoniga innovatsiyaviy texnologiyalar hamda ilmiy-texnikaviy ishlanmalarini keng tatbiq etishni rag'batlantirishni kuchaytirish, shuningdek intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni ishonchli muhofaza qilish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi hamda O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish respublika agentligi negizida O'zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligi tashkil etilgan

Butunjahon intellektual mulk tashkilotida hamda intellektual mulk sohasidagi boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasini ifodalovchi vakolatli organ hisoblanadi

AGENTLIKNING ASOSIY VAZIFALARI:

intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

ixtiolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini ekspertizadan, ro'yxatdan o'tkazish hamda hisobga olishni tashkil etish va amalga oshirish;

Davlat patent fondini va intellektual mulkning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, ularning saqlanishini hamda iqtisodiyot real sektorining xo'jalik yurituvchi subyektlari, ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislar tomonidan samarali foydalanimishi uchun qulayligini ta'minlash;

intellektual mulk sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlariga va aholiga «yagona darcha» tamoyili bo'yicha davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatish;

korxonalar va tashkilotlarga chet eldag'i milliy intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish, shuningdek intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O`zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to`g“risida”gi farmoyishi. 15.08.2017 y.
2. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod (inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002. -448b.
3. Betell T. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Obshaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

2-bob. MULKIY ISLOHOTLAR AMALIYOTIDAGI USUL VA USLUBLAR

Reja:

2.1. Mulkiy islohotlar yo‘nalishlarining guruhlanishi.

2.2. Xususiy lashtirish usullari va bosqichlari.

2.3. Harakatlar strategiyasida mulkiy islohotlarning rivojlantirilishi

2.4. Turli mulkchilik usullarida bo‘lgan ayrim korxonalardagi uzoq muddatli taxliliy ishlari.

Mashg`ulot maqsadi: Mulkiy islohotlar amaliyotidagi usul va uslublar bo`yicha umumiy tushunchani shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- «Mulkiy islohotlar yo‘nalishlari» tushunchasiga ta’rif beradi;
- Xususiy lashtirish usullari va bosqichlarini aytadi va tavsif beradi;
- Harakatlar strategiyasida mulkiy islohotlarning rivojlantirilishi tasniflab beradi.

2.1. Mulkiy islohotlar yo‘nalishlarining guruhlanishi.

Mulkiy islohotlar-mulkning mavqeい(himoyalash) va kafolatlash) va mansubligini o‘zgartirishga oid chora-tadbirlar majmuasi

Mulkiy islohotlarning maqsadi-iqtisodiyotning samarali amal qilishi va xalq farovonligi o‘sishi imkoniyatini yaratish va kengaytirishdan iborat.

Strategik vazifalar haqiqiy mulkdorga topshirish va ko‘p ukladli raqobat muhitini barpo etish.

Ya’ni:

Birinchi strategik vazifa-davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiy lashtirilayotgan mulk haqiqiy mulkdorlar qo‘liga berilishi bilan, bu iqtisodiy munosabatlarni tubdan o‘zgartirish uchun real shapt-sharoit yaratish.

Ikkinci strategik vazifa-iqtisodiyotda ko‘p ukladlikni hamda rag‘batlantiruvchi kuchga ega bo‘lgan raqobat muhitini yaratish.

Uklad -iqtisodiyotni mulk shakllari, xo‘jalik yuritish uslublari, daromad

manbalari kabi mezonlar asosida turkumlanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida 4 uklad amal qiladi: davlat, xususiy, jamoa va aralash. Ko‘p ukladli iqtis.- aralash iqtisodiyot.

O‘zbekiston Respublikasining Fukarolik kodeksiga muvofiq respublika mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulki — ommaviy mulk hisoblanadi.

1. Mulkiy islohotlar yo‘nalishlarining guruhlanishi yo‘nalishlar

1.Natsionalizatsiya–milliylashtirish:

[ekspropriatsiya](#)([konfiskatsiya](#))+rekvizúsiya;

2. Denatsionalizatsiya (davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish).

Yo‘nalishlar har bir tarixiy davrda, turli sinflar manfaatidan kelib chiqqan holda va tartibda amalga oshiriladi.

Natsionalizatsiya(milliylashtirish) — xususiy shaxslarga tegishli er, sanoat korxonalar, bank, transport yoki boshqa mol mulkni davlat mulkiga o‘tkazish. Milliylashtirish-davlat suverenitetining xalqaro huquqda tan olishi hisoblanadi. 20 asrning 17-yilidan boshlab Sobiq sotsialistik tuzumda amalga oshirilgan.

Davlat mulkining barcha obyektlari ikki guruhga bo‘linadi:

- davlat tasarrufidan chiqarib, xususiy lashiriladigan obyektlar;
- xususiy lashtirish taqiqlangan obyektlar;

Islohotlarning hal qiluvchi omillaridan biri va o‘ziga xos xususiyatlari ularning uzvivligi, izchilligi va majburiyligidadir.

Xalq xo‘jaligi tarmoklarini faol isloh qilishga kiritilishidan avval turli mulkchilik usullarida bo‘lgan ayrim korxonalarda uzok muddat taxliliy ishlar bajarildi.

MULKCHILIK TO‘G‘RISIDAGI QONUNDA

1. O‘zbekiston Respublikasida mulk quyidagi shakllarda (**5-modda.**) bo‘ladi:
xususiy mulk;
shirkat (jamoa) mulk;
ma’muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (kommunal mulkdan) iborat davlat mukli;

aralash multk;
boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki.

7-modda. Xususiy multk

1. Xususiy multk o‘z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir. Xususiy multk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida va (yoki) yollanma mehnatni qo‘llashda shaxsan bevosita ishtirok etishiga asoslanishi mumkin.

2. Xususiy multk boshqa multk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor o‘z mulkidan faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mahrum etilishi mumkin.

3. Xususiy multk fuqarolarning yollanib ishlashdan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishdan olgan daromadlari hamda kredit muassasalariga qo‘ygan mablag‘laridan, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlardan kelgan daromadlardan, meros bo‘yicha va amaldagi qonun hujjatlarida man etilmagan o‘zga asoslarga muvofiq mol-mulkka ega bo‘lishlari hisobiga hosil etiladi va ko‘payib boradi. Fuqarolarning xususiy mulki ularning davlat mulkini xususiylashtirishda ishtirok etishi hisobidan vujudga keltirilishiga ham yo‘l qo‘yiladi.

4. Fuqaro o‘zining mehnat qilish qobiliyati – ishchi kuchini tasarruf etishda mutlaq huquqqa ega. U bu huquqni mustaqil tarzda yoki shartnoma (bitim, ahslashuv) asosida amalga oshiradi.

Tarmoqni milliyashtirish-2 jahon urushidan keyin

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida yirik va o‘rta sanoat,;

Angliyada ko‘mir, po‘lat quyish va boshqalar....

Chili(mis sanoati), Eron(neft sanoti)da xususiydan davlat m.ga o‘tkazilgan.

Ekspropriatsiya — evazsiz o‘zlashtirish;

konfiskatsiya—ko‘p hollarda jinoyat va huquqbazarlik oqibatida kelib chiqadi.

Rekvizitsiya- to‘liq yoxud qisman sotib olish,pulli o‘zlashtirish. To‘liq yoxud qisman sotib olish shartnoma.

Bankdagi hisob raqamlarni muzlatish, valyuta o‘kazishni cheklash kabilar

qisma n M.ga sharoit yaratish his.di.

MULKCHILIK SHAKLI TASNIFLAGICHI (2005 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra)

100. Xususiy mulk

- 110. Fuqarolar mulki
- 120. Mahalla mulki
- 130. Kooperativ mulki
- 140. Xo‘jalik birlashmalari va shirkatlar mulki
- 150. Jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar mulki
- 160. Qo‘shma korxonalar, xorijiy fuqarolar va tashkilotlar mulki
- 190. Xususiy mulkchilikning boshqa shakllari

200. Ommaviy mulk

- 210. Respublika mulki
- 220. Munitsipal mulk (ma’muriy-hududiy tuzilmalar)
- 290. Ommaviy mulkning boshqa turlari

2. Denatsionalizatsiya

- 2.1. Davlat tasarrufidan chiqarish
- 2.2. Xususiy lashtirish

QONUNLAR:

1. Konstitutsiya, Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risi
(1991- yil 19- noyabr,) **21- modda; Mulkchilik T.(1990);**

Fuqarolik kodeksi;

Ushbu Qonun samarali, ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi ommaviy mulkini o‘zgartirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beradi.

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiy lashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo‘limgan yuridik shaxslarning ommaviy mulki obyektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishning asosiy prinsiplari (3-m.)

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish shakllarini mehnat jamoasining manfaatlarini hisobga olgan holda aniqlash;

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish vaqtida mulkni pulli va pulsiz topshirishni qo'shib olib borish;

pulsiz va pulli xususiy lashtiriladigan mulkdan ulush olishda fuqarolarning huquqlari tengligi;

davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish sharoitida barcha fuqarolar ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlash;

oshkoraliq davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish tadbirlarini amalga oshirish ustidan davlat va jamoat nazoratini yo'nga qo'yish;

raqobat to'g'risidagi [qonun hujjatlari](#) talablariga rioya etish.

2.2. Xususiy lashtirish usullari va bosqichlari

Turli mamlakatlarda xususiy lashtirishning yetta asosiy usuli:

1. Davlat korxonalari aksiyalarining ochiq sotuvini o'tkazish
2. Aksiyalarni kimoshdi savdosi yo'li bilan sotish.
3. Davlat korxonalarini xususiy investrlash.
4. Korxonaning mulkini sotish va keyinchalik mavjud qarzlarni to'lash yo'li bilan davlat korxonasini tugatish.
5. Davlat korxonasini alohida bo'linmalarga ajratish yoki bo'lish va qayta qurish yo'li bilan ularni qismlar bo'yicha sotish.
6. Korni rahbarlar va mehnat jamoasi a'z.i tomonidan sotib olish.
7. Davlat korxonasining xususiy shaxs tomonidan ijaraga olinishi yoki davlat va xususiy korxonalar, o'rtaida kor.ni boshq. t. bitim tuzish.

XUSUSIYLASHTIRISH USULLARINI GURUHLARGA AJRATISH:

1. Korxonalar (obyektlar) butunlay, aksiyalar paketlari va davlat ulushi - ochiq birja savdolarida to'liq xususiy mulkka sotiladi. Ushbu guruhga kirgan korxona (obyektlarni) xususiy lashtirish mexanizmi juda sodda - ya'ni obyektlar yoki aksiyalar

paketlarini birja orqali sotish.

2. Sarmoyadorlar tomonidan investitsiya majburiyatlarining bajarilishi evaziga nol qiymati bo‘yicha tanlov savdolariga qo‘yiladigan korxona va obyektlar.

Ushbu guruh obyektlari mintaqalarda (viloyatlarda) tanlovlар e’lon qilish yo‘li bilan sotiladi. Har bir mintaqada ushbu mintaqa ma’muriyatining rahbari boshchiligida tanlov komissiyalari tuzilgan. Bunday komissiya sarmoyadorlardan kelib tushgan buyurtmalarni ko‘rib chiqadi, ularning korxonaga qancha mikdorda va qanaqa shaklda sarmoya kiritishni mo‘ljallayotganligi haqidagi takliflarini ko‘rib chiqadi. Shu bilan birga xukumat sarmoyadorlarga nol xarid qiymati bo‘yicha sotilgan past rentyobelli, zarar ko‘rib ishlovchi, iqtisodiy nochor davlag korxonalaryning byudjetga va byudjetdan tashqari fondlar bo‘yicha to‘lovlar, shu jumladan ular bo‘yicha hisoblab yozilgan penyalar va jarimalar bo‘yicha o‘tgan yillardagi ishonchhsiz qarzlarini hisobdan chiqarish

3. Davlatga tegishli bo‘lgan aksiyalarining paketlari xalqaro tenderlarni tashkil etish orqali tender asosida sotiladigan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalar.

• Yirik strategik korxonalar (uchinchи guruh) ochiq tenderlarni tashkil etish yo‘li bilan sotiladi, bu yerda yakka tartibda xususiylashtirish jarayoni qo‘llaniladi. Bunday tenderlarda ishtirok etish uchun xususiylashtirilayotgan korxonaga investitsiyalar kiritish va uni yanada rivojlantirish bo‘yicha biznes-rejalarini taqdim etgan sarmoyadorlarga ruxsat etiladi.

Turli mamlakatlarda davlat korxonalarini *xususiy-lashtirishni rejala lashtirish va amalga oshirish jarayoni* qoida tariqasida **uch asosiy bosqich:**

1. Maqsadga muvofiqlikni baholash;
2. Tayyorgarlik tadbirlari ;
3. Amalda ro‘yogga chiqarishdan iborat.

1. davlat mulki obyektini ommaviy savdoga qo‘yish hamda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar qabul qilish sharti bilan “nol” qiymatda sotilishi borasida ishlar amalga oshirilgan 2.davlat aktivi ommaviy savdolar orqali xususiylashtirilishi

- ommaviy auksion,

- ommaviy oferta savdolari
- **Birinchi bosqichda** xususiy lashtiriladigan korxonalar tanlab olinadi va xususiy latirish usullari belgilanadi.
 - Navbatdagi bosqichda xususiy lashtirilayotgan korxonalarni tayyorlash amalga oshiriladi, me'yoriy asoslar ishlab chiqiladi, dastlabki baholash bajariladi va ayrim muhim karorlar qabul qilinadi.
 - **Tayyorgarlik bosqichida** amalga oshiriladigan asosiy tadbirdariing so'nggisi, qiymat bahosini. Dastlabki aniqlashdai iboratdir. Bozorning potensial munosabati va korxonaning oldingi yillardagi rentabelpigi uning belgilovchi omillaridir.
 - **Xaridorlar korxona faoliyati** natijalarining yaxshilanish imkoniyatlariga, shuningdek eng kam me'yoriy aralashuvlar
 - orqali bozorda ta'sirning muayyan darajasiga umid
 - qilsalar, hiyla yuqori narxlar belgilanishi mumkin.
 - *Xususiy lashtirish asosini pullilik qoidasi tashk. e. SHu munosabat bilan xus.tirishning aksiyalash, inshootlarni tanlovlari va kimoshdi savdosi orqali sotish singari usullar keng tus oldi.*

Mulkchilik shaklarini tanlash Davlat raqobat qo'mitasi tomonidan

- *ishlab chiqarish miqyoslari,*
- *tarmoq xususiyatlari,*
- *ishlovchilar mikdori,*
- *asosiy fondlarning kiymati,*
- *ishlab chiqarishni kooperatsiyalash va mexnat taksimoti jarayonlarida boshqa obyektlar bilan alokalar xisobga olingan xolda amalga oshiriladi.*

Inshootlarni xususiy lashtirish shart-sharoitlari ham ular faoliyagining ko'lamlari va o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Asosan savdo, umumiyl ovqatlanish, aholiga communal va maishiy xizmat ko'rsatish sohalariga kiruvchi obyektlar qoida tariqasida kimoshdiga qo'yib yoki tanlov asosida sotiladi. Boshqa tarmoqlarning mayda va o'rta obyektlari, kagakkichikligidan qati nazar, chala kurilish obyektlari ham agar u balansida bo'lgan tashkilotlarda uni tugatish uchun mablag' bo'lmasa yoki mablag' etishmasa shu tartib

bo‘yicha xususiy lashtiriladi.

2.3. Harakatlar strategiyasida mulkiy islohotlarning rivojlantirilishi

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish

2.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo‘lidagi barcha to‘siq va cheklovlarini bartaraf etish, unga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan tamoyilni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiy lashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiy lashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;⁶

Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi

12. Davlat mulkidan samarali foydalanishda boshqaruvning eng zamonaviy turlarini joriy etishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining **«Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida»gi Qonun** loyihasini ishlab chiqish.

Loyihada: davlat mulkidan samarali foydalanishda boshqaruvning eng zamonaviy turlarini joriy etish; davlat unitar korxonalarini boshqarishga biznes boshqaruv usullarining eng ilg‘or shakllarini (benchmarking) joriy etish; Ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarda korporativ boshqaruvning ilg‘or usullarini joriy etish nazarda tutiladi. Bunda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasining

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли [Фармони](#)

eng ilg‘or usullarini qo‘llagan holda davlat mulkidan foydalanish samaradorligi keskin oshiriladi.

13. Davlat va xususiy sheriklik (hamkorlik) shakllarini kengaytirishga qaratilgan «**Davlat va xususiy sheriklik to‘g‘risida**»gi Qonun loyihasini ishlab chiqish.

Loyihada davlat va xususiy sheriklik tushunchasi, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari, ishtirokchilari doirasi, ularning huquq va majburiyatlar, bu boradagi loyihalar amalga oshiriladigan ustuvor sohalar tartibga solinadi.

172. foydalanimayotgan davlat mulki obyektlarini, jumladan, «nol» xarid qiymati bo‘yicha sotish jarayonlarini yanada soddalashtirish hamda bunday obyektlar tadbirkorlik subyekti tomonidan aniqlanganda, ularni sotib olish yuzasidan takliflarni qabul qilish va ko‘rib chiqish tartibini belgilash.

Iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirish, xususiy lashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat mulklarining real narxlarini shakllantirish.

Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida (25.09.2014y.QONUNI)

Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir.

- Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari :
- qonunga bo‘ysunish;
- teng huquqlilik;
- ochiqlik va shaffoflik;
- hammaboplik;
- mustaqillik;
- xolislik;
- o‘zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas’uliyat;
- majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

Ijtimoiy sheriklik amalga oshirilishi mumkin sohalar:

- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;
- aholining bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, fermerlikni rivojlantirish;
- atrof muhitni, aholining sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish;
- har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo'naltirish;
- onalik va bolalikni, shuningdek xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirish;
- fan, ta'lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;
- aholining huquqiy bilimlari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;
- millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko'p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;

Ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari :

- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;
- nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;
- ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish;

- ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitimlar va shartnomalar (bundan buyon matnda bitimlar va shartnomalar deb yuritiladi) tuzish, birgalikdagi loyihalar va rejalarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- ijtimoiy sheriklik subyektlari o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish.

2.4. Turli mulkchilik usullarida bo‘lgan ayrim korxonalarda uzoq muddat taxliliy ishlari

Davlat mulkining barcha obyektlari ikki guruhga bo‘linadi:

- davlat tasarrufidan chiqarib, xususiy lashiriladigan obyektlar;
- xususiy lashtirish taqiqlangan obyektlar;

Islohotlarning hal qiluvchi omillaridan biri va o‘ziga xos xususiyatlari ularning uzviyligi, izchilligi va majburiyligidadir.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini faol isloh qilishga kiritilishidan avval turli mulkchilik usullarida bo‘lgan ayrim korxonalarda uzok muddat taxliliy ishlari bajarildi.

VII. Davlat korxonasining foydasi

VIII. Davlat korxonasining javobgarligi

IX. Davlat korxonasi faoliyatini nazorat qilish

X. Davlat korxonasini qayta tashkil etish va
tugatish

**Davlatga tegishli aksiyalar paketlarini
(ulushlarni) ishonchli boshqaruvga berish tartibi
to‘g‘risida NIZOM quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga
oladi.**

5.1. Davlat, davlat ulushi bo‘lgan va unitar korxonalar tavsifi

I. Umumiy qoidalar

II. Davlat korxonasini ta’sis etish xususiyatlari

III. Muassisning huquq va majburiyatları

IV. Davlat korxonasining mulki

V. Davlat korxonasi rahbarining majburiyatları va javobgarligi

VI. Davlat korxonasining filiallari va



I. Umumiy qoidalar

II. Davlat aktivlarini ishonchli boshqaruvga berish tartiboti

ишиончили бошқарувишинг давлат
активлари <small>(акциялар пакети ёки улушларни)</small>
НАМУНАВИЙ ШАРТНОМАСИ
I. Шартнома мавзуси
II. Шартноманинг амал қилиш муддати
III. Давлатга тегишли <small>ни</small> ишиончили бошқарувга бериш тартиби
IV. Ишончли бошқарувчининг ҳукук ва мажбуриятлари
V. Марказнинг ҳукук ва мажбуриятлари
VI. Ишончли бошқарувчи фаолиятини тақдирлаш
VII. Алоҳида шартлар
VIII. Томонларнинг жавобгарлиги
IX. Бошқа қоидалар
X. Шартноманинг амал қилишини тұхтатиши
XI. Низоларни ҳал этиши

III. Ishonchli boshqaruvchining maqomi,
huquqlari va majburiyatları

IV. O‘zbekiston Respublikasining
Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko‘mak berish
va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi
huzuridagi Davlat aktivlarini boshqarish
markazining huquq va majburiyatları

V. Ishonchli boshqaruvchi faoliyatini
taqdirlash

VI. Tomonlarning javobgarligi

VII. Ishonchli boshqarish huquqini

to‘xtatish

Unitar korxona quyidagilar bilan izohlanadi:

- O‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi;
- Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas;
- Unitar korxonaning ustavida korxona ustav fondining miqdori to‘g‘risidagi, uni tashkil etish tartibi va manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak;
- Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir;
- Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak;
- boshqarish organi uning rahbari bo‘lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi;

➤ o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi;

- o‘z mol-mulki egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi;
- mol-mulkining egasi korxona majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta’sis hujjati uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iboratdir.

Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi Davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin. Davlat korxonasining ta’sis hujjati uning ustavidir. Operativ boshqaruv huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko‘rsatishi kerak. Davlat korxonasining mol-mulki etarli bo‘lmaganida davlat uning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

5.2. Xususiy tadbirkorlik subektlari tavsifi

Bugungi kunda yurtimizda 525 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig‘i kichik va xususiy biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan bo‘lib, ular respublikamiz mehnatga layoqatli aholisining 78 foizdan ortig‘ini ish bilan ta’minlamoqda.

“Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmonida (PF-5087-19.06.2017)

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tizimi tubdan qayta isloh etish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilingan⁷

O‘zbekiston Jahon banki Guruhining “Biznes yuritish-2018” (Doing Business 2018) reytingida uchinchi bor dunyoning etakchi o‘nta davlati qatoridan o‘rin oldi.

⁷ Манба: <http://chamber.uz> сайти маълумотлари асосида тайёрланган.

**2011 йил 24 августдаги ПФ-
4354-сон «Кичик бизнес ва
хусусий тадбиркорликни янада
ривожлантириш учун энг
қулай ишбилиармонлик
мухитини шакллантиришига
доир қўшимча чора-тадбирлар
тўғрисида»**

ro‘yxatga olish;

- qurilish uchun ruxsatnoma olish;
- minoritar investorlarni himoya qilish;
- soliqqa tortish;
- elektr ta’minoti tizimiga ulanish.

Biznesni boshlash osonlashdi global reytingda

11-o‘rin, bunda jarayonlar 4 tadan 3 taga kamaytirildi. 15 yil muqaddam yangi biznesni ro‘yxatga olish 10 ta jarayon, 28 kun va aholi jon boshiga daromadning 14 foizini (u 2220 AQSH dollariga baholanadi) talab qilgan bo‘lsa, ayni paytda bu ko‘rsatkich 3 ta jarayon, 5 kun va aholi jon boshiga daromadning 3 foizini tashkil etmoqda.

O‘zbekiston. xalqaro savdo indeksi. va qurilishga ruxsat olish mezonlarida ortda qolmoqda.

Ruxsat olishni engillashtirishga yo‘naltirilgan jarayon 17 ta jarayon va 246 kunni talab qiladi.

5.3. Qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subektlari tavsifi

Mamlakatimizda paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishida 53 862 ta fermer xo‘jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan 2 973 000 hektar er maydonida 2016 yilda 6 016,9 ming tonna boshoqli don va 2 959 ming tonna paxta xomashyosi etishtirilgan.

O‘zbekiston o‘tgan yilgi 87-o‘rindan 13 pog‘ona yuqorilab, 74-o‘rinni band etdi. Reytingni yaxshilashga xizmat qiluvchi biznes sohasidagi beshta islohot quyidagilar hisoblanadi.

▪ biznesni

**2011 йил 25 август, ПҚ-
1604-сон:
БЮРОКРАТИК
ТЎСИҚЛАРНИ
БАРТАРАФ ЭТИШ ВА
ТАДБИРКОРЛИК
ФАОЛИЯТИ
ЭРКИНЛИГИНИ**

Biroq, aksariyat fermer xo‘jaliklari tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilayotgan bo‘lishiga qaramasdan, 2017- yilning 1- aprel holatiga ularning kreditor qarzdorligi jami 1 587 mld. so‘mni tashkil qiladi⁸.

Buning sabablari o‘rganilganda kreditorlik qarzdorlikning yuzaga kelishiga qator omillar sabab bo‘layotgani aniqlandi.

Xususan, fermer xo‘jaliklari tomonidan etishtirilayotgan paxta va boshoqli don ekinlari uchun sarflanadigan xarajatlar mahsulot xarid qiymatiga nisbatan yuqoriligidcha qolmoqda.

Jumladan, 2016- yilda 1 tonna paxta xomashyosining davlat xarid narxi 1 218,4 ming so‘m bo‘lsa, unga sarflanadigan xarajatlar 1 508 ming so‘mni, 1 tonna boshoqli don ekinlari xarid narxi 503,5 ming so‘m bo‘lsa, unga sarflanadigan xarajatlar 595 ming so‘mni tashkil etgan.

Keyingi 10 yilda paxta xarid narxi 4,8 va boshoqli don xarid narxi 6,1 barobarga oshgan bir paytda, mineral o‘g‘itlar narxi 12,1 barobar, shu jumladan azotli o‘g‘itlar 13,2, fosforli o‘g‘itlar 14,8, kaliy 6,9 barobarga, neft mahsulotlari narxi esa 12,9 barobarga oshgan.

Oqibatda 2017- yilning 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarining mineral o‘g‘itlar uchun kreditor qarzdorligi 810,1 mld. so‘mni, yoqilg‘i-moylash mahsulotlari uchun qarzdorligi esa 502,6 mld. so‘mni tashkil qilmoqda.

Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni PF-5199-son 09.10.2017 y

O‘tkazilgan islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 99 foizidan ortig‘i fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda tomorqa er maydonlarida etishtirilishiga erishildi.

Qabul qilingan “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi va “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlar arning haqiqiy egasi sifatida fermer va dehqon xo‘jaliklarining huquqiy maqomini aniq belgilab berdi hamda ularning qishloq

⁸ Сенатнинг 2017 йил 27 майдаги парламент сўровидан.

xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy subyektlar sifatida shakllanishi va rivojlanishini ta’minladi.

O‘zbekiston fermerlari kengashi konferensiyasining qaroriga muvofiq O‘zbekiston fermerlari kengashi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashi sifatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermerlar kengashlari tegishlichay Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa er egalari kengashlari sifatida qayta tuzilganligi ma’lumot uchun qabul qilindi.

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha respublika komissiyasining 2018-2021 yillarda fermer xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi. 2022 yilning 1 yanvaridan boshlab ko‘p tarmoqli faoliyatni yo‘lga qo‘ymagan fermer xo‘jaliklari bilan er ijarasi shartnomalari qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilish Belgilab qo‘yildi

Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida (1998- yil 30- aprel, 7-bob. 36-modda)

Ushbu qonunning yangi tahriri O‘zbekiston Respublikasining 2004- yil 26- avgustdagи «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonuni bilan tasdiqlangan.

1-bob. Umumiq qoidalar

2-bob. Fermer xo‘jaliklariga er berish. Erga egalik qilish, erdan va suvdan foydalanish

3-bob. Fermer xo‘jalogining hamda uning a’zolarining huquq va majburiyatları

4-bob. Fermer xo‘jalogining mol-mulki

5-bob. Fermer xo‘jaligi faoliyatining asoslari

6-bob. Fermer xo‘jaligini qayta tashkil etish va tugatish

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

5.4. Nodavlat notijorat tashkilotlar tavsifi

Nodavlat notijorat tashkilotlari tashkiliy-huquqiy shakllarining xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Jamoat birlashmasi

2. Jamoat fondi
3. Muassasa
4. Matlubot kooperativi
5. YUridik shaxslarning birlashmalari (uyushmalar, ittifoqlar)
6. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi
7. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkati
8. Homiylik tashkiloti
9. Xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti kabi shakllarga ajraladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi, faoliyat yuritadi va tugatiladi:

1. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
2. Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
3. “Jamoat fondlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
4. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (Yangi tahriri)
5. Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
6. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (Yangi tahriri)
7. “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa meyoriy huquqiy hujjatlar.

Har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining mazmuni quyidagilar bilan izohlanadi:⁹

- ✓ u foyda chiqarib olish va uni tashkilotchilar o‘rtasida taqsimlash uchun emas,
- ✓ balki umum manfaatiga qaratilgan ishlarni,

⁹ Хукукий муаммоларни ўрганиш маркази Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлар Миллий Ассоциацияси

- ✓ homiylik faoliyatini amalga oshirish,
 - ✓ muhtojlarga moddiy vama'naviy yordam ko'rsatish,
 - ✓ fan va madaniyatni rivojlantirish,
- jamiyatning ravnaq topishiga ko'maklashish maqsadida tuziladi

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi.15.08.2017 y.
2. Pindayk R.,Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan)-T.: "SHarq", 2002-448b.
3. Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. Moskva: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
Keyns J.M. Ob'شاуа teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

6-bob. MULKIY ISLOHOTLARDA BIRJA FOLIYATINING O'RNI

Reja

6.1. Birja foliyati va qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslari

6.2. Davlat (dxarid.uzex.uz) buyurtmasi , davlat va korporativ xaridlarni tashkil etish va o'tkazish (VM-166- 11.06. 2013).

6.3. O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi (uzex.uz) faoliyati tavsifi.

6.4. «Toshkent» Respublika fond birjasi Aksiyadorlik jamiyati faoliyati (<http://www.uzse.uz/>). (№ PQ-1727-19.03.2012

6.5.“Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi” davlat korxonasi faoliyati tavsifi.

Mashg`ulot maqsadi: Birja foliyati va qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslari bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o'rganish natijasida talaba:

- Davlat (dxarid.uzex.uz) buyurtmasi , davlat va korporativ xaridlarni tashkil etish va o'tkazish xususiyatlarini aytadi va tavsif beradi;
- O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi (uzex.uz) faoliyati tavsifini ochib beradi;
- «Toshkent» Respublika fond birjasi Aksiyadorlik jamiyati faoliyatini o'rganadi;
- “Qimmatli qog'ozlarning markaziy depozitariysi” davlat korxonasi faoliyatini tasniflab beradi.

6.1. Birja foliyati va qimmatli qog'ozlar bozorining institutsional asoslari

Birja (B.) – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtida, belgilangan qoidalar asosida birja savdolarini tashkil etuvchi yuridik shaxs.


Birjalar faqat aksiyadorlik jamiyatlari shaklida tashkil etiladi.

Birjalar o'z faoliyatini tovar-xomashyo, fond va valyuta birjasi turida amalga oshiradi. Birjaning firma nomida «birja» so'zi bo'lishi kerak.(3-m..)

Birjalar -.birja savdolari ulgurji bozor shakllanadi va narxlar aniqlanadi.

Birja. funksiyalaridan biri – birja. tovarlarining narxlarini talab va taklif asosida aniqlash va tartibga solishdan iborat.

Birjalarda xaridor va sotuvchilarning ko‘p miqdordaligi, savdolarda ulgurji tovarlarning yirik miqdordagi aylanuvi mavjudligi, birja narxlarini real bozor narxlariga yaqinlashtiradi.¹⁰



Birja faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ✓ birja savdolarini o‘tkazishning oshkoraliyi va ommaviyili;
- ✓ birja savdolarida narxlar shakllanishining erkinligi;
- ✓ birja bitimlarini tuzishning ixtiyoriyili;
- ✓ birjaning barcha a’zolari uchun birja savdolarida ishtirok etishda shart-sharoitlarning tengligi;
- ✓ tuzilgan birja bitimlari bajarilishining ta’milnishi.

Birja bitimlari bajarilishini ta’milash shart-sharoitlari:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- agar birja bitimi shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, birja tovarlarini etkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси.Қонуни «Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида» (янги т. 12.09.2014-13.03.2015) 22-м

- pul mablag‘larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo‘yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;
- birja savdosi qoidalari va birja bitimlari bo‘yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birjada tuziladigan birja bitimlari quyidagilardan iborat

Spot bitimi birja tovarlarining ularni kechiktirmasdan etkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari;

Forvard bitimi birja tovarlarining ularni kechiktirib etkazib berish sharti bilan tuziladigan oldi-sotdi bitimlari;

Fyuchers bitimi birja tovarini etkazib berishni (etkazib berish fyuchersi) yoki birja tovarini etkazib bermagan holda bitim taraflari o‘rtasida pul hisob-kitoblari amalga oshirilishini (hisob-kitob fyuchersi) nazarda tutadigan, kelgusida bajarish majburiyati bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari;

Opcion bitimi birja tovarlarini yoki hosila moliyaviy vositalarni (derivativlarni) kelgusida sotib olish yoxud sotish huquqi bilan tuziladigan hosila moliyaviy vositalarning (derivativlarning) oldi-sotdi bitimlari;

Valyuta svop bitimi valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar bo‘yicha hisob-kitoblarni muayyan muddat o‘tgach, avvaldan belgilangan valyuta kursi bo‘yicha amalga oshirish sharti bilan tuziladigan valyutalarni bir vaqtda olish-sotishga doir bitimlar;

Repo bitimi qimmatli qog‘ozlarni muayyan muddat o‘tgach, avvaldan belgilangan narx bo‘yicha qayta sotib olish sharti bilan tuziladigan qimmatli qog‘ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari tuzilishi mumkin.

Birja bitimlari bajarilishini ta’minlash shart-sharoitlari:

- kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- agar birja bitimi shartlarida nazarda utilgan bo‘lsa, birja tovarlarini etkazib berishni nazorat qilishni va hisobga olishni amalga oshirish;
- pul mablag‘larini va birja tovarlarini oldindan deponentga qo‘yishni nazarda tutuvchi mexanizmlarni belgilash;

- birja savdosi qoidalariga va birja bitimlari bo‘yicha majburiyatlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish.

Birjada quyidagilarga yo‘l qo‘yilmaydi:

birja axborotnomasiga kiritilmagan tovarlarni birja savdolarida sotish;

birja savdolari ishtirokchilarining birjadagi joriy narxlar o‘zgarishi yoki qat’iy qilib qo‘yilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan har qanday kelishilgan xatti-harakatlar sodir etishi;

bozor kon’yunkturasini sun’iy ravishda o‘zgartirishga sababchi bo‘lishi mumkin bo‘lgan yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish;

birja a’zolari o‘rtasida tuzilgan birja bitimlarini birja savdolarini o‘tkazmasdan turib ro‘yxatga olish.¹¹

6.2. Davlat (dxarid.uzex.uz) buyurtmasi , davlat va korporativ xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish (VM-166- 11.06. 2013).

Davlat xarajatlari –bu davlat o‘z funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish bilan bog‘liq moliyaviy chiqimlardir;

➤ Davlat byudjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to‘plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

➤ Davlat xarajatlarining muhim tarkibiy qismi sifatida Davlat xaridi alohida o‘ringa ega.

➤ Tovar va xizmatlarni xarid etish jahon rivojlanish amaliyotida muhim o‘rin egallaydi hamda fondlar va investitsiyani samarali o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan uzuksiz jarayon hisoblanadi.

➤ O‘zbek tilidagi “xarid” termini (inglizchada, procurement - prokyurment) “sotib olish” ma’nosи bilan bir xilda ishlatalib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko‘rsatilgan xizmatlarni ma’lum haq evaziga olish (inglizchada, procurement of goods, works and services) demakdir.

¹¹ Биржа фаолиятини (валюта биржаси фаолифти бундан мустасно) тартибга солувчи ваколатли Давлат. органи килиб «Рақобат» қўмитаси белгиланган (ВМ. №66 -2003й.04.02.).

Davlat xaridi –bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to‘liq davlat mablag‘lari evaziga sotib olishdir. davlat infratuzilmasini moddiy-moliyaviy ta’minlash uchun amalga oshiriladi.

Davlat infratuzilmasini umumiylar tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:

- ❖ iqtisodiy infratuzilma (transport, kommunal xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo‘lgan infratuzilmalar);
- ❖ ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, qamoqxonalar yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar).

Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O‘zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniy-me’yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

DAVLAT XARIDLARI — byudjet tizimi byudjetlarining mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari;

SUBVENSIYA — muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari;

SUBSIDIYA — tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni realizatsiya qilishni moliyalashtirish yoki birgalikda moliyalashtirish yoxud maqsadli xarajatlarning o‘rnini qisman qoplash uchun byudjet tizimi byudjetlari hisobidan yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan pul mablag‘lari;

DOTATSIYA — byudjet tizimi byudjetlariga ularning o‘z daromadlari etishmagan taqdirda daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farqni qoplash uchun qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.¹²

¹² Бюджет кодекси (26.12.2013й.) 3-модда асосий тушунчалар

6.3. O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjası (uzex.uz) faoliyati tavsifi

Davlat ulushi ustuvor bo‘lgan tabiiy monopoliyalar subyektlari, korxonalar va tashkilotlarning elektron xaridlari bo‘yicha hukumat komissiyasi ishchi organi to‘g‘risida nizom¹³.

O‘zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasida elektron xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom¹⁴

O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

Qimmatli qog‘ozlar bozori yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish, joylashtirish, aylanuvi bilan bog‘liq munosabatlar tizimi.

Aksiya - o‘z egasining aksiyadorlik jamiyatni foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Veksel - veksel beruvchining yoki vekselda ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to‘lashga doir shartsiz majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz;

Davlat qimmatli qog‘ozlari - O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatları va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

Depo hisobvarag‘i - deponentning qimmatli qog‘ozlarini saqlash va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig‘indisi.

¹³ Вазирлар Махкамасининг №-166-11.06.2013 йилдаги Низомга 1-илова

¹⁴ Вазирлар Махкамасининг №-166-11.06.2013 йилдаги Низомга 2-илова

6.4. «Toshkent» Respublika fond birjasi Aksiyadorlik jamiyatি faoliyati (<http://www.uzse.uz/>). (№ PQ-1727-19.03.2012)

Fond birjalari, fond bo‘limini tashkil qilgan boshqa birjalar va qimmatli qog‘ozlar bilan birjadan tashqari savdolar tashkilotchisi savdolarida tuzilgan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha bitimlar ular tomonidan tasdiqlangan va qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan qoidalarga asosan ro‘yxatga olinadi.

Bozorlarda savdo tizimlarida qimmatli qog‘ozlarning turlariga qarab ular bo‘yicha savdo shakllari, usullari, metodlari va mexanizmlari ma’lum darajada farqlanishi mumkin. SHu munosabat bilan savdo tizimlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- emissiyalanuvchi qimmatli qog‘ozlar savdosi tizimi;
- emissiyalanmaydigan qimmatli qog‘ozlar savdosi tizimi;
- bazaviy qimmatli qog‘ozlar savdosi tizimi;
- basisli qimmatli qog‘ozlar (derivativlar, ya’ni hosilaviy qimmatli qog‘ozlar) savdosi tizimi;

Savdo tizimlarini qimmatli qog‘ozlar bozori segmentlari bo‘yicha ham tasniflash mumkin:

- birlamchi tarzda ilk bor joylashtiriladigan qimmatli qog‘ozlar savdosi tizimi (birlamchi bozor savdo tizimi);
- ikkilamchi bozor (spekulyativ) savdo tizimi.

Ushbu savdo tizimlari birjaviy va birjadan tashqari bozorlarda mujassamlashgan.

Yuqorida aytigarlardan ko‘rinib turibdiki, savdo tizimlari moliya bozorida muhim rol o‘ynaydi. Ularning bu roli o‘zlarida moliya bozorining barcha qatnashchilari uchun moliyaviy instrumentlar bo‘yicha samarali savdo jarayonini tashkillashtirish, unda etarli va qulay shart-sharoitlar yaratish hamda bu jaryonda obyektiv bozor narhlarni belgilash bilan ifodalanadi.

Savdo tizimlari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- har bir savdo qatnashchisiga bozordan alohida joy ajratib berish;

- narh-navoning muvozanat va obyektiv darajasini arbitraj asosida aniqlash;
- savdo jarayonida taraflar tomonidan savdo ijrosini aniq, to‘liq, o‘z vaqtida va kafolatli bajarilishini ta’minlash;
- savdolarni ochiqlik va oshkorlik asosida tashkillashtirish;
- savdo qatnashchilari tomonidan etik normalarga va kodeksiga rioya qilinishini ta’minlash.

Savdo tizimlarining funksiyasi – bu o‘zi orqali moliyaviy resurslarni samarali va obyektiv narhlarda iqtisodiyot subyektlari o‘rtasida taqsimlanishini va qayta taqsimlanishini ta’minlash.

Birja tushunchasi keng ma’noda moliya bozori va savdo tizimlarining mazmuni, vazifalari va funksiyasidan kelib chiqib ta’riflanadi ya’ni fond birjasi – bu:

- muntazam reglamentlangan rejimda faoliyat yurituvchi ulgurji bozorning alohida tashkiliy-xuquqiy shakli bo‘lib, unda tovar sifatida birja ekspertizasidan o‘tgan va savdoga kiritilgan qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi;
- sotuvchi va haridorni bir-biri bilan uchrashtirish yo‘li orqali qimmatli qog‘ozlarni savdosiga ko‘maklashuvchi mexanizm;
- qimmatli qog‘ozlar savdosini tashkillashtiruvchi va bunda savdo qatnashchilari uchun yetarli va qulay sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs;
- qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talab va taklifga binoan belgilangan tartib-qoida (davlat qonunlari hamda birja Ustavi va ichki me’yoriy hujjatlari), ochiqlik va oshkorlik asosida savdolarni ma’lum vaqtida o‘tkazadigan joy (savdo maydoni);
- qimmatli qog‘ozlarning bozor kursini (narhini) belgilovchi, muntazam va ochiq tarzda joriy birja kotirovkalarini e’lon qilib boruvchi tashkilot.

Umuman olganda, fond birjasi – yuqorida sanab o‘tilgan hossalarga ega bo‘lgan mahsus maqomli yuridik shaxs.

Demak, Fond birjasi – qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi bo‘lib uning faoliyati predmeti bozorning profesional ishtirokchilari uchun muayyan joyda va belgilangan vaqtida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha savdolarini tashkil qilish, ularning bozor narxlarini (qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talablar va

takliflar o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) aniqlash, ular yuzasidan muvofiq ma’lumotlarni tarqatishdan iborat.¹⁵

Fond birjasi o‘z faoliyatida qonun hujjalariiga, birja ustaviga hamda qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi bilan kelishilgan birja savdolari qoidalariga amal qiladi.

Klassik fond birjasining xussusiyatlari:

- Birjaga fakat muayan talablarga javob beradigan eng yaxshi kimmattli kogozlarga ruxsat etiladi.
- Birja savdolariga fond birjasi a’zolarining maxsus muassasiga alokador bulgan shaxslarga ruxsat etiladi.
- Kimmatli kogozlar bilan savdolar kilishning muvakkat tartibi va andozalashtirilgan savdo-sotik tadbirlarining mavjudligi.
- Savdo-sotikni muayyan joyda markazlashtirish.
- Birjaning uzini – uzi tartibga solishi, ya’ni birjani boshkarishni birja savdolari ishtirokchilarining uzlari amalga oshiradi.

Fond birjasining vazifalari:

- Moliyaviy resurslarni jalgan etish, ularni taksimlash va kayta taksimlash
- Kimmatli kogozlarning erkin aylanish jarayonini tashkil etish va ularni likvidligini ta’minlash
- Talab va taklif muvozanatini ta’minlash - ularning real uzaro nisbatini aniklovchi mexanizmi bula turib, kimmattli kogozlarni «xakikiy» narxini aniklash.

Fond birjasining funksiyalari:

- Birja savdolarini tashkil kilish
- Birja shartnomalarini tayyorlash va amalga oshirish
- Birja narxlarini kotirovka kilish
- Investorlarni ma’lumot bilan ta’minlash
- Birja bitimlarini kafolatli amalga oshirish

¹⁵ <http://www.uzse.uz> “Тошкент” республика фонд биржаси расмий сайти

6.5. “Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi” davlat korxonasi faoliyati tavsifi

Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi – O‘zbekiston Respublikasi depozitariylarida qimmatli qog‘ozlarni saqlash, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqni hisobga olish va qimmatli qog‘ozlar harakatining yagona tizimini ta’minlovchi depozitariy. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida”gi qonun bilan bilan qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati tartibga solinadi.



Markaziy depozitariy qonun hujjatlariga muvofiq davlat unitar korxonasi sifatida tuziladi. Markaziy depozitariy o‘z faoliyatini xizmat ko‘rsatishdan olingan daromadlar va boshqa tushumlar hisobiga amalga oshiradi.

Markaziy depozitariy xizmatlari uchun olinadigan tariflar miqdori O‘zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Markaziy depozitariy mutlaq vazifalari quyidagilardan iborat: naqd bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarni saqlash; davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan obyektlarning naqd qimmatli qog‘ozlarini ular sotib olingunga qadar bo‘lgan davrda saqlash; naqd va naqd bo‘lmagan qimmatli qog‘ozlarga nisbatan davlat huquqlarini hisobga olish; depozitariylarning vakillik hisobvaraqlarini yuritish; birja va birjadan tashqari savdolar qatnashchilarining qimmatli qog‘ozlari savdolarga qo‘yilishidan oldin ular borligini va haqiqiy ekanligini tasdiqlash; savdolarda tuzilgan bitimlarga muvofiq birja va birjadan tashqari savdolar qatnashchilariga qimmatli qog‘ozlar etkazib berilishini ta’minlash; naqd va naqd

bo‘lмаган qimmatli qog‘ozlar muomalaga chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni saqlash; O‘zbekiston Respublikasi hududida norezidentlar tomonidan, shuningdek qimmatli qog‘ozlarning xorijiy fond bozorlarida O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni hisobga olish; depozitariylar tizimida qimmatli qog‘ozlar harakati to‘g‘risidagi axborotlarni jamlash va tartibga solib turish.

2015 йилнинг 1 июлидан “Тошкент” Республика фонд биржаси бошқарувининг 25.06.2015 йилдаги 38-сонли карори

билин “Кимматли көгозларнинг биржаса саводалари
коидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди.

Ўзгартириш ва қўшимчалар Ўзбекион Республикаси Президентининг 24.04.2015 йилдаги ПФ-4720-сонли Фармони билан тасдиқланган

Корпоратив бошқарув тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлар дастурининг 32 ва 33 - бандларига,

шунингдек Ўзбекион Республикасининг “Кимматли көгозлар бозори тўғрисида”ги янги таҳрирдаги (03.06.2015 йилдаги ЎРк-387-сонли) қонунига мувофикаштириши максадида ишлаб чиқилди.

2017- yilning 9 oyи faoliyati yakunlariga ko‘ra, “Qimmatli qog‘ozlarning Markaziy depozitariysi” davlat korxonasida 615 aksiyadorlik jamiyatining 47 600,62 mlrd so‘m nominal qiymatga ega 4 344,07 mlrd dona qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlari hisobi yuritiladi.

O‘tgan yilning shu davriga nisbatan aksiyadorlik jamiyatları soni 58 taga kamaygan bo‘lsa-da, qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi hajmi 17 819 mlrd. so‘mga va tegishli tarzda 912,11 mln dona aksiyaga ortgan.

Markaziy depozitariyda, shuningdek, umumiy summasi 256,27 mlrd so‘m bo‘lgan 581,3 ming dona korporativ obligatsiyalar hisobi yuritiladi. Ularning jami 206,27 mlrd. so‘mlik 531,3 ming donasi 11 tijorat banklari tomonidan chiqarilgan.¹⁶

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi. 15.08.2017 y.

¹⁶ <http://kommersant.uz/uz/yangiliklar/markazij-depozitarij-47-600-62-mld-sum-ijmatdagi-immatli-o-ozlar-chi-arildi>

2. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod (inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “Sharq”, 2002-448b.
3. Betell T. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Овощаaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. /Per s angl. – M.: Ekonomika, 2010.

7-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK OBYEKTALARINI TASNIFFLASH

Reja

- 7.1. Tijorat maqsadlarida foydalanilayotgan ko'chmas mulk obyektlari**
- 7.2. Ijtimoiy soha ko'chmas mulk obyektlari va ulardan foydalanish**
- 7.3. Davlat tassarufidagi ko'chmas mulkni boshqarish tizimi**
- 7.4. Ko'chmas mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish tajribasi**

Mashg`ulot maqsadi: Mulk, mulkchilik va mulkiy munosabatlar tushunchalar bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o'rganish natijasida talaba:

- Tijorat maqsadlarida foydalanilayotgan ko'chmas mulk obyektlari ayta oladi;
- Ijtimoiy soha ko'chmas mulk obyektlari va ulardan foydalanishga tasnif beradi;
- Davlat tassarufidagi ko'chmas mulkni boshqarish tizimini tavsiflaydi;
- Ko'chmas mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish tajribasi bilan tanishib o`tadi;

Кўчмас

МУЛК

(маъно:

“кўзғалмас объект”, “мулк”,
“мулкка эгалик”)

Кўлланиш соҳаси бўйича фойдаланиш жараёнида унинг таркибий тузилиши, тавсифи, ўзига хос хусусиятларига зарар етказмаган холда **курилган ўрнидан кўчишини инкор этадиган мулкка айтилади.**

Уларга: бинолар, иншоотлар, ер участкалари ва ер билан боғлиқ бўлган бошқа мулклар киради.

7.1. Tijorat maqsadlarida foydalanilayotgan ko‘chmas mulk obyektlari

Ko‘chmas mulk obyektlarining kelib chiqishiga ko‘ra turlari:

- insonning ishtirokisiz tabiat tomonidan yaratilgan ko‘chmas mulk obyektlari;
- inson mehnati natijasida yaratilgan ko‘chmas mulk obyektlari;
- inson mehnati bilan yaratilgan, lekin tabiat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, usiz faoliyat ko‘rsata olmaydigan ko‘chmas mulk obyektlari.

Ko‘chmas mulk obyektlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

Tabiiy obyektlar – yer uchastkalari, o‘rmon va ko‘p yillik o‘simliklar, maxsus suv obyektlari va yer osti boyliklari mavjud hududlar. Shuningdek ularni “tabiatan ko‘chmas mulk” deb ham atashadi.

Sun’iy obyektlar (qurilishlar):

- a) Turar joy ko‘chmas mulk obyektlari.

Ko‘p xonardonli uy – kam qavatli uy (3 qavatgacha), ko‘p qavatli uy (4dan 9 qavatgacha), yuqori qavatli uy (10 dan 20 qavatgacha), osmono‘par uy (20 qavatdan ortiq);

b) tijorat ko‘chmas mulk obyektlari – ofislar, restoranlar, do‘konlar, mexmonxonalar, ijara uchun garajlar, omborxonalar, bino va inshootlar, mulk majmuasi sifatidagi korxonalar;

- v) jamoat (maxsus) ko‘chmas mulk obyektlari:

davolash – sag‘lomlashtirish (kasalxonalar, poliklinikalar, qariyalar va bolalar uylari, sihatgohlar, sport majmualari va h.k.):

ta’lim – tarbiya (maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlar, institut-universitetlar, bolalar ijodiyot uylari va h.k.);

madaniy – oqartuv (muzeylar, ko‘rgazma majmualari, madaniyat va dam olish bog‘lari, madaniyat uylari va teatrlar, sirklar, planetariylar, hayvonot bog‘lari, botanika bog‘lari va h.k.);

maxsus bino va inshootlar – ma’muriy (militsiya, sud, prokuratura, hokimiyat organlari), haykallar, me’moriy inshootlar, vokzallar, portlar va h.k.;

- g) muhandislik inshootlari – sug‘orish inshootlari, drenaj va h.k.

Bu guruhlarning har birini turli xil tipologik mezonlarga tayangan holdagi taqsimot asosida kichik guruhlarga ajratish mumkin.

Ekspluatatsiyaga tayyorlik darajasi bo‘yicha sun’iy obyektlarning tasniflanishi 7.1-rasmda ko‘rsatilgan.

1. Даромад келтирувчи объектлар

- дўконлар ва савдо мажмуалари,
- меҳмонхоналар ва
- кўнгилочар марказлар,
- бизнес субъектлари офислари
- каби объектлар киради.

2. Даромад келишига замин яратувчи кўчмас мулк объектлари

- бу омборхона ва
- логистик мажмуалар,
- саноат соҳаси объектлари,
- индустриал парклар ва
- бошқа ишлаб чиқариш мажмуалари

a) Do‘konlar va savdo majmualari. Hozirgi kunda savdo va umumiy ovqatlanish - iqtisodiyotning intensiv ravishda rivojlanayotgan sohalaridir. Bu sohagi obyektlar birinchilardan bo‘lib davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlaridan o‘tganlar, bu esa ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida faol rivojlanishlariga turtki bo‘lgan. Ko‘p funksiyali savdo majmui (KFSM), supermarket, gipermarket, ixtisoslashgan do‘konlar (univermaglar) savdo majmualari obyektlari hisoblanadi.

b) Mehmonxonalar va ko‘ngilochar ko‘chmas mulk obyektlari. Istalgan mamlakatda bunday ko‘chmas mulk obyektlarining tasniflanishi moddiy-texnika ta’minoti, ko‘rsatiladigan xizmatlar nomenklaturasi va sifati, hamda xizmat ko‘rsatish darajasiga bo‘lgan talablar majmuasiga asoslanadi.

Mehmonxona turiga kiruvchi ko‘chmas mulk obyektlariga, xususan, quyidagilar kiradi: yuqori toifali mehmonxona, o‘rta toifali mehmonxona, apartament-mehmonxona, kurort-mehmonxona, motel, VV tipidagi xususiy

mehmonxona (yotiqtan va nonushta), garni-mehmonxona, pansion, mehmonxona hovli, rotel, botel, flotel, flaytel.

s) Ofis binolari. Har bir regionda biznes-markazlarni tasniflashda bino u yoki bu sinfga tegishliliginini aniqlaydigan turli xil omillar hisobga olinadi.

Hozirgi kunda Toshkentda 70 %dan ortiq ofis binolari ijaraga beriladi va faqatgina 20-25 % i sotiladi. Ofis binolarining savdo bozori ijara bozoriga qaraganda ancha noaniq. Bitimlarning ko‘pchiligi vositachisiz amalga oshiriladi.

d) Garaj-to‘xtash joylari (avtopareinglar) tijorat ko‘chmas mulki obyektlari sifatida individual maxsus loyiha asosida qurilgan va vaqtinchalik, qo‘srimcha qurilish sifatida qurilgan garajlar, hamda parkinglarga bo‘linadi.

Do‘konlar va savdo majmualari. Hozirgi kunda savdo va umumiy ovqatlanish - iqtisodiyotning intensiv ravishda rivojlanayotgan sohalaridir. Bu sohagi obyektlar birinchilardan bo‘lib davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlaridan o‘tganlar, bu esa ularning bozor iqtisodiyoti sharoitida faol rivojlanishlariga turtki bo‘lgan.

Supermarket – bu alohida bino yoki KFSM tarkibida joylashgan, o‘z-o‘ziga xizmat qilish prinsipi bo‘yicha ishlaydigan do‘kon bo‘lib, u asosan oziq-ovqat mahsulotlariga ixtisoslashgan bo‘ladi. U savdo sotiq jarayonining avtomatlashtirilgan tizimi va yagona xisob-kitob xizmatiga ega bo‘ladi. Ular odatda 5 mingdan ortiq turdagি mahsulot assortimenti bilan to‘ldirilgan bo‘lib, maydoni 700-1000 m² dan kam bo‘lmaydi. KFSM Ko‘p funksiyali savdo majmui.

Gipermarket – bu maydoni 3-4 ming m² dan kam bo‘lмаган supermarket bo‘lib, odatda alohida binoda joylashadi, kam holatlarda KFSM tarkibida uchraydi, 10 mingdan ortiq turdagи mahsulot assortimenti bilan to‘ldirilgan bo‘ladi, shu o‘rinda nooziq-ovqat turdagи mahsulotlar ham assortiment tarkibiga kiradi.

Keng turdagи iste’mol mollariga **ixtisoslashgan do‘konlar** (univermaglar) – bu maydoni 1 ming m² gacha bo‘lмаган, alohida binoda yoki turar joy binosi birinchi qavatiga qo‘srimcha qurilgan savdo tashkilotidir.

Garaj-to‘xtash joylari (avtoparkinglar) tijorat ko‘chmas mulki obyektlari sifatida individual maxsus loyiha asosida qurilgan va vaqtinchalik, qo‘sishimcha qurilish sifatida qurilgan garajlar, hamda parkinglarga bo‘linadi.

Parking – bu alohida turuvchi bir yoki ko‘p sathli yopiq qo‘riqlanadigan inshoot Qo‘sishimcha sifatida qurilgan garajlar (turar joy binosining pastki qavatiga qurilgan yoki unga qo‘shilgan) - bu maxsus belgilangan joylar yoki bokslarga ega, avtomobillar to‘xtashi va saqlanishiga ixtisoslashgan inshoot. Avtomashina to‘xtash joyi (avtostoyanka) – avtotransport vositalarini joylashtirish yoki saqlash uchun mo‘ljallangan bino, inshoot (bino, inshootning qismi) yoki maxsus ochiq maydon.

Daromad olishga sharoit yaratuvchi tijorat ko‘chmas mulk obyektlarining tavsifi

Daromad kelishiga zamin yaratuvchi ko‘chmas mulk obyektlari – bu omborxona va logistik majmular, sanoat sohasi obyektlari, sanoat sohasi obyektlari, sanoat sohasi obyektlaridan tashkil topadi.

Omborxonalar – bu mahsulotlarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash, iste’molga tayyorlash va iste’molchilarga chiqarishga mo‘ljallangan bino, inshoot va turli xil qurilmalardir.

Logistik terminallar – bu yuklarning yirik partiyalarini qayta tuzish va yuklarni tovar holiga keltirish (yig‘ish, qadoqlash, mayda idishlarga bo‘lish va h.k.) ga mo‘ljallangan yuk tushirish va ortish bazasidir.

Industrial park (IP) – bu ishlab chiqarish, omborxona va ofis binolarining majmui bo‘lib, odatda, shahar tashqarisida, katta er uchastkasida joylashadi, muhandislik tarmoqlari va transport infratuzilmasi qurilish sohasidagi yagona echim bilan birlashtiriladi.

Texnopark – bu zamonaviy ishlab chiqarish va omborxona majmualari, muhandislik inshootlari, energetik rezervlar, rivojlanish uchun rezervlar, avtomobillar to‘xtash joylari, hamda ishchilar uchun turar joy zonasi va bevosita yaqin joylashgan ITR mavjud bo‘lgan muhandisligi bo‘yicha tayyor hududdir.

Texnopolislar – harakatlarni birlashtirish va region iqtisodiy rivojlanishi uchun qattiq impuls berish maqsadida, ma'lum hududda ilmiy, innovatsion, ilmiy-texnologik parklar birlashmalarining va biznes-inkubatorlarning tashkiliy shakllaridir.

7.2. Ijtimoiy soha ko‘chmas mulk obyektlari va ulardan foydalanish

Foydalanish maqsadlariga ko‘ra bino va inshootlar ikki guruhga, ishlab chiqarish va noishlabchiqarish obyektlariga bo‘linadi.

Noishlabchiqarish maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlarning asosiy qismini ijtimoiy soha bino va inshootlar tashkil etadi va ular qurilish tarmog‘i me’yoriy hujjatlarda turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan obyektlar deb nomланади.

Turarjoy-fuqarolik maqsadlarida foydalanilayotgan binolar o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi. Bular:

- turarjoy binolari;
- jamoatchilik-fuqarolik bino va inshootlari;
- ijtimoiy va madaniy - maishiy maqsadlarda foydalanilayotgan bino va inshootlar.

Joylashgan o‘rni. Bino qiymatiga ko‘proq ta’sir qiladigan, muhim bo‘lgan omil - uninig joylashgan o‘rnidir.


Konstruktiv (me’moriy) loyiha. Bino konstruksiyasi ham baholashda muhim o‘rin tutadi, Kommunal xizmat. Tabiiy gaz, issiq va sovuq suv, elektr va boshqa xil muxandislik kommunikatsiyalarining mavjudligi, Bino bilan birgalikda baholash jarayonida ko‘chmas mulk obyektida mavjud mashina va uskunalar. Binoning holati. Seysmik omillar. YOllanuvchi (ijarachi). Egalik (sotish). Asosiy fond bo‘lmish bino yoki inshootlarni, huddi shunday boshqa xil aktiv turlari kabi aktivni o‘zlashtirayotganda, uni qancha vaqtga olinayotganligi va ijara kelishuvi bilan mos ravishda qanday majburiyatlar va qulay jihatlari haqidagi ma'lumotlarni bilish, mulkiy huquqni o‘zlashtirish shartlarini hisobga olish zarurdir. Hududning (atrof-muhitning) ifloslanganligi. Tabiiy muhit omili. Bozor raqobatbardoshligi. Analog obyektlar topishning qiyinligi. Ijtimoiy sohada foydalaniladigan ko‘chmas mulkni

baholashga ta'sir qiluvchi omillardan yana biri, bu shu turdag'i ko'chmas mulkning notijorat maqsadlarda foydalanilishidir.

Ko'chmas mulkni baholashda demografik holatning ham ahamiyati katta. infrastrukturasi xam ahamiyatga ega.

7.3. Davlat tasarrufidagi ko'chmas mulkni boshqarish tizimi

Yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizdan ko'prog'i, sanoat mahsulotining va pudrat ishlari hajmlarining 90 foizdan ortig'i, qishloq xo'jaligi va savdo sohasining deyarli barcha mahsuloti iqtisodiyotning nodavlat sektori ulushiga to'g'ri kelmoqda.



Ko'chmas mulkni tasarruf etish shakllari:

- davlat tasarrufidagi mulk,
- xususiy sektor mulki,
- nodavlat-notijorat tashkilotlari mulki va
- fuqarolarning shaxsiy mulklari

Maxsus xizmatlar tasarrufidagi ko'chmas mulk tarkibiga davlat daxilsizligi va ichki tartib-intizomni saqlash bilan bog'liq xizmatlar (harbiy mudofa, ichki ishlar, xavfsizlikini va boshqa) bilan bog'liq ko'chmas mulk obyektlari kiradi;

Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan strategik ko'chmas mulk obyektlari tarkibiga to'la davlat tasarrufidagi yoki qisman sherikchilikdagi mulk asosida shakllantirilgan korxona va tashkilotlarning ko'chmas mulk obyektlari kiradi. Bunday obyektlarga O'zbekiston havo yo'llari, temir yo'llar yoki nodir ka qimmatbaho metallar ishlab chiqarishi bilan bog'liq korxona va tashkilotlarning bino va inshootlarini keltirish

mumkin. Odatda bunday korxonalarining kamida 51% aksiyalari (boshqaruv paketi) davlat tasarrufida qoldiriladi.

Davlat boshqaruvi va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ko'chmas mulkni ushbu organlarning boshqaruv funksiyalarini tashkil etish uchun band bo'lgan bino va inshootlari va hokimiyatlar tassarrufidagi turli maqsadlarda foydalaniladigan obyektlar tashkil etadi.

Tarmoq vazirliklar va qo'mitalar tasarrufidagi ko'chmas mulk obyektlariga ular faoliyatini tashkil etish va ularga bo'ysunuvchi (asosan byudjetdan moliyalashtiriladigan) tashkilotlar ko'chmas mulk obyektlari tashkil etadi. Maktablar, kollej va litseylar, tibbiyot muassasalari va boshqalarni keltirish mumkin.

Maxsus va ijtimoiy sohaga tegishli ko'chmas mulk obyektlariga vazirlik va qo'mitalar tasarrufida bo'lman turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslangan tashkilotlar bino va inshootlari kiradi. Masalan: markaziy byudjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan "Odam savdosi jabrdiydalarini reabilitatsiya qilish markazi" binosi.

CHet mamlakatlardagi davlat mulki deganda O'zbekiston Respublikasi elchixonalari va vakolatxonaga muqim foydalanish uchun ajratilgan er maydonlari hamda unda mavjud bino va inshootlari shuningdek, davlat tomonidan xarid qilingan boshqa obyektlar tushuniladi.

7.4. Ko'chmas mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tajribasi

Aholining keng ommasini mulkka jalb qilish, mulkdorlar sinfini shakllantirish – davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning maqsadli istiqboli hisoblanadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy shakllari:
davlat korxonalarini jamoa, xo'jalik jamiyatlari yoki shirkatlarga aylantirish;
davlat korxonalarini, ijara mulkini keyingi sotib olish sharti bilan, ijara shaklidagi korxonaga aylantirish;

davlat mulkini tanlov va “kim oshdi savdolari” orqali nodavlat yuridik va jismoniy shaxslarga sotish, hamda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga zid bo‘lмаган boshqa shakllarda sotish.

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

- 1.Prezident Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.
- 2.Pindayk R.,Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan)-T.: “SHarq”, 2002-448b.
- 3.Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. Moskva: IRISEN. 2008-480 s.
- 4.Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Obщаaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

8-bob. XUSUSIY MULKNI HIMoya QILISH VA MULKDORLARNING KAFOLATLARI

Reja

8.1. Mulkiy munosabatlarni takomillashtirishda davlatning o‘rni.

8.2. Milliy iqtisodiyotda xususiy mulk salmog‘i dinamikasidagi tendensiyalar.

8.3. O‘rta mulkdorlar qatlaming shakllanishi va rivojlanishi.

8.4. Xususiy mulkni himoya qilishning institutsional asoslari.

8.5. Xususiy mulkni himoya qilish usullari.

Mulkdorlarlarning kafolatlari.

Mashg`ulot maqsadi: xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlarning kafolatlari bilan tanishadi.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Mulkiy munosabatlarni takomillashtirishda davlatning o‘rnini ayta oladi;
- Milliy iqtisodiyotda xususiy mulk salmog‘i dinamikasidagi tendensiyalarini aytib beradi;
- O‘rta mulkdorlar qatlaming shakllanishi va rivojlanishi turlarini keltiradi;
- Xususiy mulkni himoya qilishning institutsional asoslarini bayon etadi;
- Xususiy mulkni himoya qilish usullarini elementlarini tavsifini bayon etadi.

8.1. Mulkiy munosabatlarni takomillashtirishda davlatning o‘rni

Davlat siyosiy hokimiyatning tashkiloti-jamiyatni boshqaradigan, intizom va barqarorlikni ta’minlaydi. Davlatning belgilari quyidagilardan iborat:

- hududi;
- aholisi;

mustaqil ichki va tashqi siyosati(suverenitet);

- ramzlari;
- soliq yig‘imi;
- qonun ijodkorligi.

**Мулкий
муносабатларни
такомиллаштириши**

**1. Туб ўзгариш
учун реал шарт-
шароит яратиш-
мулкни ҳақиқий
мулкдорлар
қўлига бериш;**

**2. Кўп укладли
иктисодиёт
хамда рақобат
мухитини
яратиш.**

8.1-rasm. Mulkiy munosabatlarni takomillashtirishda davlatning roli¹⁷

Uklad-iqtisodiyotni mulk shakllari, xo‘jalik yuritish uslublari, daromad manbalari kabi mezonlar asosida turkumlanishini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida 4 uklad amal qiladi: davlat, xususiy, jamoa va aralash. Ko‘p ukladli iqtisodiyot- aralash iqtisodiyot sanaladi.

Asosiy ta’riflar:

- Resurslar cheklanganligi sabab -mulk munosabatlari mavjud bo‘ladi .
- Ne’matlar mulkka aylangandan so‘ng o‘zlashtiriladi.
- O‘zlashtirish- egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish yaxlitligi.
- Mulk — turli obyektlarning subyektga mansubligini bildiradi
- mulkchilik munosabatlari mulk subyektining mulk obyektiga bo‘lgan munosabati subyektlar o‘rtas. mun

Mulkchilik:

• ***iqtisodiy ma’noda*** — kishilar o‘rtasida mulkni o‘zlashtirish, xo‘j. yuritish uchun ishlatish jarayonida yuz beradigan real munosabatlar, moddiy ne’matlarni o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir. Bunday usullar yakka tartibda, jamoa bo‘lib yoxud davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

• ***huquqiy ma’noda*** — mulk yuzasidan vujudga keladigan aloqalar, qonun va huquqiy hujjatlarda, davlat tomonidan belgilangan va har bir fuqaro uchun majburiy tartibda rasmiylashtiriladigan yo‘l-yo‘riqlarda ifodalananadi. Moddiy ne’matlarni muayyan subyektlarga tegishli ekanligini (biriktirilganligini) mustahkamlovchi va

¹⁷ Муаллиф томонидан ишланган.

tegishli mulkning huquqiy tartibini belgilovchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 167-moddasi mulk shakllari to‘g‘risida bo‘lib unda O‘zbekiston Respublikasida mulk xususiy mulk va ommaviy mulk shakllarida bo‘lishi bayon etilgan. Fuqarolik kodeksining 16-bobi xususiy mulk masalsiga bag‘ishlangan. Xususan shu bobdagi 207-moddada xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo‘lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidi deb belgilangan. Xususiy mulk bo‘lgan mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi.

8.2. Milliy iqtisodiyotda xususiy mulk salmog‘i dinamikasidagi tendensiyalar

Mustaqillik yillarda davlat mulkini xususiylashtirish, uni asosan xususiy mulkka sotish bo‘yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilishi natijasida 31 mingdan ziyod davlat korxonalari va obyektlari mulkchilik shaklini o‘zgartirdi.

Davlat ukladining xissasi 1990- y.gi 85 foizdan 2000 y. 29,8 foizga, 2011 y. esa 18,7 foizgacha pasaydi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizdan ko‘prog‘i, sanoat mahsulotining va pudrat ishlari hajmlarining 90 foizdan ortig‘i, qishloq xo‘jaligi va savdo sohasining deyarli barcha mahsuloti iqtisodiyotning ***nodavlat sektori ulushiga*** to‘g‘ri kelmoqda.

Xususiylashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, iqtisodiyotda davlat ishtirokining kamaytirilishi hamda xususiy mulkchilikning roli va ahamiyati oshirilishi istiqboldagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning g‘oyat muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

Ayni paytda xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida sohaga to‘la erkinlik berish, bu yo‘lda g‘ov bo‘lib turgan barcha to‘sinq va cheklovlarini bartaraf etish eng muhim ustuvor vazifa etib belgilangan.

8.3. O‘rta mulkdorlar qatlaming shakllanishi va rivojlanishi

Istiqlol yillarda aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bordi. Jumladan, mustiqillikning dastlabki

yillarida ushbu ko'rsatkich 10,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 -yilga kelib 42foizga o'sib 52 foizni tashkil qildi. Bu MDHdagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Ushbu yuqori ko'rsatkichga erishishda xususiy mulk daxlsizliga xususiy mulk va investitsiyalar daxlsizligini ta'minlashning ishonchli huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilganligi va mulkdorlarga keng imtiyoz va kafolatlar berilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan bir qatorda so'nggi yillarda o'rta sinf vakillari faoliyatini erkinlashtirish, ular uchun qo'shimcha imtiyozlar yaratish borasida tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, keyingi yillarda yagona soliq stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 15,2 foizdan 5 foizga tushirildi.

Tadbirkorlik subyektini ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoidalar, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 19 tasi qisqartirildi. Bugun mavjud xo'jalik subyektlarining 90 foizdan ortig'ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000- yildagi 31 foizdan 56 foizga etgan. Mamlakatimizda ish bilan band aholining 77 foizini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobiga ta'minlangan.

8.4. Xususiy mulkni himoya qilishning institutsional asoslari

2012-2014 yillar mobaynida xususiy mulk mavqeini mustahkamlash, uning daxlsizligini ta'minlash, biznes yuritish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida (yangi tahrirda)», «Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida», «Raqobat to'g'risida», «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi kabi o'nlab qonunlar qabul qilingan.

Qonunchilikni rivojlantirib borish natijasida istiqlol yillarida mulkchilik tuzilishida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ko'p ukladli iqtisodiyot, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor ahamiyat kasb etdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hal qiluvchi o'rin egalladi, bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbai, aholi bandligi o'sishining eng muhim omiliga aylandi.

2015- yil 15- mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi. Mazkur Farmon bilan tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to‘sinqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdon shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish, xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma’muriy va jinoyat qonunchiligin liberallashtirish, barcha turdagiro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

2015- yil 20- avgustda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma’muriy javobgartik to‘g‘risidagi, Xo‘jalik-protsessual, Fuqarolik, Soliq, Mehnat kodekslariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritildi.

8.5. Xususiy mulkni himoya qilish usullari

O‘zbekiston respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida 8-moddasida belgilanganidek xususiy mulk huquqini himoya qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- xususiy mulk huquqini tan olish;

- xususiy mulk huquqi buzilishidan oldingi holatni tiklash va xususiy mulk huquqini buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;
- bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;
- xususiy mulk huquqini mulkdorning o‘zi himoya qilishi;
- burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;
- zararning o‘rnini qoplash;
- neustoyka undirish;
- ma’naviy ziyonni qoplash;
- xususiy mulk huquqi munosabatlarini tartibga solishda qonun hujjatlari barqarorligini ta’minalash;
- davlat organining va boshqa organning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid bo‘lgan hujjatining sud tomonidan qo‘llanilmasligi;
- mol-mulkning ayrim turlariga bo‘lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o‘zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish.

Xususiy mulk huquqini himoya qilish qonunga muvofiq boshqa usullar bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

8.6. Mulkdorlarlarning kafolatlari

O‘zbekiston respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida xususiy mulk uchun quyidagi kafolatlar belgilab qo‘yilgan:

- undiruvni mol-mulkka qaratish yo‘li bilan mol-mulk olib qo‘yilayotganda mulkdor huquqlarining kafolatlari;
- mMulkdorning mol-mulki natsionalizatsiya, musodara va rekvizitsiya qilinayotganda uning huquqlari kafolatlari;

- qonunga muvofiq o‘ziga tegishli bo‘lmaydigan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi bekor qilinganda mulkdor huquqlarining kafolatlari;
- mulk huquqi mulkdorning mol-mulkini bevosita olib qo‘yishga qaratilmagan holda bekor qilinganda uning huquqlari kafolatlari;
- mol-mulkni boshqa shaxsning qonunga xilof egaligidan talab qilib olish;
- mulkdorning huquqlarini egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmanan huquqbuzarliklardan himoya qilish;
- xususiy mulk huquqining qonunga muvofiq bekor bo‘lishi oqibatlari;
- xususiy mulk munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjati qabul qilingandagi kafolatlar;
- mol-mulkni xususiylashtirish natijalarining qayta ko‘rib chiqilishi va bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmanan shaxslarning mulk huquqi kafolatlari.

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.
2. Pindayk R.,Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.
3. Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Obshaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

9-bob. MULKIY ISLOHOTLAR BOSQICHLARIDAGI VAKOLATLI ORGANLAR TAVSIFI

Reja

9.1. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil qilinishi.

9.2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi.

9.3. O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi faoliyati.

9.4. Mulkiy islohotlar bosqichlaridagi vakolatli organlar faoliyatining takomillashuvi.

Mashg`ulot maqsadi: mulkiy islohotlar bosqichlaridagi vakolatli organlar tavsifi tushunchaga ega bo`lish.

Mavzuni o'rganish natijasida talaba:

- Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil qilishini ayta oladi;
- O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi faoliyatini tasnif beradi;
- Mulkiy islohotlar bosqichlaridagi vakolatli organlar faoliyatining takomillashuvini tavsiflaydi.

9.1. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil qilinishi

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida davlat mulkini xususiyashtirish va undan samarali foydalanish maqsadida vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi prezidentning 1994 yil 7 fevraldaggi 758- sonli farmoniga asosan davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil qilindi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini tobora avj oldirish, shuningdek tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat mulki jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

9.2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzuridagi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi

2005- yil 30- aprelda PF-3602-sonli «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi prezident farmoni qabul qabul qilinishi munosabati bilan hamda davlat boshqaruvi organlari o'rtasida vazifalar, funksiya va vakolatlar aniq belgilab qo'yilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining nomi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi (**Davlat mulki** qo'mitasi) deb o'zgartirildi.

2010- yil 26- fevralda PF-4191-son bilan «Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» prezident farmoni imzolandi. Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar korxonalari faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish ishlarini faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi etib qayta tashkil qilindi.

Monopoliyaga qarshi davlat siyosatini faollashtirish, raqobatni va tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida, «Monopolistik faoliyatini cheklash to‘g‘risida» va «Iste’molchilar huquqlarini muhofaza qilish to‘g‘risida» qonunlarni bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Bosh boshqarmasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda narx siyosatini o‘tkazish sohasidagi funksiyalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va mahalliy moliya organlarida saqlab qolindi.

«Savdo sohasida monopoliyadan chiqarishni chuqurlashtirish to‘g‘risida»gi PF-1897 (19.12. 1997y.) sonli prezident farmoniga asosan savdo sohasida bozor islohotlarini va monopoliyadan chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish, raqobatni rivojlantirish, iste’mol bozorini to‘ldirishda korxonalar hamda mahalliy boshqaruv idoralarining xo‘jalik sohasidagi mustaqilligini yanada oshirish maqsadida 1998 yilning 1 yanvaridan boshlab oziq-ovqat mahsulotlari asosiy guruhlarini fond yo‘li bilan taqsimlash tizimi bekor qilindi.

Shuningdek, barcha turdag'i iste’mol tovarlarining ulgurji xaridlari mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, ulgurji va chakana savdo korxonalari tomonidan mustaqil ravishda, vatanimiz tovar ishlab chiqaruvchilarini va mahsulotni ulgurji etkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzgan holda, etkazib beruvchilarni, xaridorlar va tovarlarni erkin tanlash prinsiplari asosida, shuningdek birja va savdo yarmarkalarida amalga oshirishi lozimligi belgilab qo‘yildi.

Milliy tovar ishlab chiqaruvchilarining resurslari bilan ta’minlanmagan iste’mol tovarlarining import xaridi asosan tenderlarni muvofiqlashtirish va o‘tkazish Respublika komissiyasi tomonidan tashkil qilinadigan tenderlarning shartlariga muvofiq amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

9.3. O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi faoliyatি

Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini izchil rivojlantirish, tabiiy monopoliyalar korxonalari faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirish va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan narxlarning asossiz oshirilishiga yo‘l qo‘ymaslik, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish ishlarini faollashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi yetib qayta tashkil qilindi (O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatining eng muhim vazifalari to‘g‘risida PF-4191-sonli prezident farmoni, 2010- yil 26- fevral).

Ushbu qo‘mitaning asosiy vazifalari hamda faoliyati yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- monopoliyaga qarshi samarali siyosatni amalga oshirish, monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risidagi va tabiiy monopoliyalar haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;
- respublikada raqobat muhitini rivojlantirish, tovarlar (xizmatlar, ishlar) bozorlarida, birinchi navbatda ichki iste’mol bozorida va reklama sohasida noinsof raqobatga chek qo‘yish, mahalliy davlat boshqaruvi va davlat hokimiyati organlari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun huquqiy maydonni yanada takomillashtirish, jamoat tuzilmalari bilan chambarchas muvofiqlashtirilgan holda iste’molchilarining qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish.

9.4. Mulkiy islohotlar bosqichlaridagi vakolatli organlar faoliyatining takomillashuvi

Raqobat to‘g‘risidagi Qonunning yangi tahriri(6.01.2012) qabul qilinishi bilan sohaga doir vakolatli organlar faoliyati takomillashdi.

Bunda quyidagi asosiy hujjatlarni keltirish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida (2012- yil 13- noyabr, PF-4483);

O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida (2012- yil 14- noyabr, VM-322);

O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2012-yil 30- dekabr, VM-374);

O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida (2017- yil 18- apreldagi PF-5016);

O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (2017- yil 18- apreldagi PQ-2897);

O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida (2017- yil 23- iyun, VM-419).

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.

1. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.

2. Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. M.: IRISEN. 2008-480 s.

3. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. -T.: Moliya, 2007.320 b.

4. Keyns J.M. ObЩaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

10-bob. DAVLAT MULKIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Reja

10.1. Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatining tashkil etilishi.

10.2. Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish.

10.3. Davlat unitar korxonalari.

10.4. Mulkni davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga bepul o‘tkazish.

10.5. Xususiyashtirilgan korxonalarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish vakolati.

Mashg`ulot maqsadi: davlat mulkidan samarali foydalanish bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatining tashkil etilishini maqsad va vazifalarini aytadi;
- Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirishni aytadi va tavsif beradi;
- Davlat unitar korxonalarini bayon etadi;
- Xususiyashtirilgan korxonalarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish vakolatini beradi.

10.1. Davlat aktivlarini boshqarish markazi faoliyatining tashkil etilishi.

Mamlakatimizda korporativ boshqaruvni rivojlantirish davlat korxonalarini xususiyashtirish va ularni aksidorlik jamiyatlariga aylantirish orqali xususiyashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. 2016- yilgaga kelib, 30 mingdan ziyod davlat korxonasi xususiyashtirildi. 1200 dan ortiq aksiyadorlik jamiyati tashkil etilib faoliyat ko‘rsatdi. 2015- yil ma’lumotlariga ko‘ra davlat korxonalari va tashkilotlari – 29622 tani, shundan 27698 (93,5%) ro‘yxat guvohnomasi bor. Davlat mulki ijarasida 26,9 ming inshoot ko‘rsatilgan. Davlat mulki dan foydalanish samaradorligi:

- 2015- yilda ustav fondda davlat ulushi monitoringi 990 (346 AJ i 44 MCHJ),- shundan markaz nazoratida: 534 (302 AJ i 232 MCHJ).

Davlat aktivlarini samarali boshqarishni ta'minlash, yagona texnik-iqtisodiy, ishlab chiqarish siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, jumladan, investitsiyalarni jalb etish yo'li bilan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqarish va o'zlashtirish hajmini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi Vazirlar Mahkamasi 2013- yil 11- iyundagi 165-son qarori davlat aktivlarini boshqarish Markazi tashkil etildi.


Davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav jamg'armasidagi davlat ulushi tasarruf etish huquqisiz, egalik qilish va foydalanish uchun davlat aktivlarini boshqarish markazi"ga berilishi belgilandi. Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari va davlat mulkini samarali boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillari faoliyatining natijadorligi monitoringini olib borish;

- AJ va boshqa xo'jalik aktivlarining davlat paketlari (ulushlari) bo'yicha, shu jumladan ularni davlatning ishonchli vakillariga, boshqaruvchi kompaniyalarga va xo'jalik boshqaruvi organlariga ishonchli boshqaruvga berish yo'li bilan aksiyador (qatnashchi)ning huquqlarini ro'yobga chiqarish;

- ustav fondida davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik va boshqa xo'jalik jamiyatlarini faoliyati samaradorligini, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash, mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdarligini oshirish, sifatni boshqarishning zamonaviy tizimlarini joriy etish hisobiga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda qatnashish;

- markazga egalik qilish va foydalanish uchun berilgan davlat aktivlari bo'yicha dividendlarning aksiyadorlik va boshqa xo'jalik jamiyatlarini tomonidan davlat byudjetiga o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishini ta'minlashga ko'maklashish (10.1-rasm).



10.1-rasm. Davlat aktivlarini boshqarish markazining tashkiliy tuzilmasi¹⁸

10.2. Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish

Davlat mulkini ijaraga berish markazlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;
- ijaraga berilayotgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan;
- tushadigan mablag‘larni hisobga olish va monitoringini olib borish;
- ijaraga beriladigan davlat mulki bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish.

Ijara to‘lovini aniqlash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- bir yilga bir kv. metr uchun ijara to‘lovining tayanch stavkasi;
- Davlat mulkining ijara shartnomasini tuzish;

¹⁸ Ўзбекистон Республикасининг хусусийлаштирилган корхоналарга кўмаклашиш ва рақобатни ривожлантириш давлат кўмитаси хузуридаги Давлат активларини бошқариш маркази фаолиятини ташкил этиш чора – тадбирлари тўғрисидаги Вазирлар Махкамаси 2013 йил 11 июнядаги 165-сон қарори.

- Davlat mulki ijarasi shartnomalari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- Ijaraga berilayotgan davlat mulkini hisobga olish, uning hisoboti va uni nazorat qilish.

Binolar va inshootlar bo'yicha ijara to'lovini (ijara to'lovining tayanch stavkasi) hisoblab chiqish:

Ts=Es*Kz*(Kq+Kh+Ko), bunda:

Ts — bir yilga bir kv. metr uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;

Es — bir yilga bir kv. metr uchun eng kam stavka;

Kz — hududiy zonalar koeffitsienti;

Kq — qurilish turi bo'yicha koeffitsient (alohida turgan bino, qo'shimcha qurilgan bino, binoning yuqori qismi, cherdak, boloxona, yarim erto'la, erto'la);

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsienti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat ko'mitasi Toshkent shahar boshqarmasi xuzuridagi "**Toshkent shahar davlat mulkini ijaraga berish markazi**" xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirishda ko'maklashish hamda davlat mulkidan yanada oqilona foydalanish maqsadida manzillar bo'yicha joylashgan binolardagi bo'sh maydonlarni ijaraga olishga taklif etadi. Taklif etilayotgan bino maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanish, soz holatda saqlash va ijara to'lovi hamda kommunal-ekspluatatsion to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 8 apreldagi 102-sonli *hamda 2011 yil 30 noyabrdagi 315-sonli qarori talablari asosida ijaraga beriladi.*

10.3. Davlat unitar korxonalarি

Unitar korxonalar tadbirkorlik korxonalari o'rtaida alohida o'rin egallaydi. O'zi mulk egasi bo'lmasdan unga mulkdor tomonidan berilgan mulk asosida faoliyat yurituvchi tijoratchi tashkilot unitar korxona hisoblanadi. Unitar korxonaning mol-

mulki bir butun bo‘lib, bo‘linmasdir va unga qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) korxona xodimlari o‘rtasida ham taqsimlanmaydi. Unitar tarzda faqat davlat va munitsipial korxonalar tuzilishi mumkin. Unitar korxonaning mol-mulki davlat yoki mahalliy hokimiyatning mulki hisoblanib, unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bilan beriladi.

Xo‘jalik yuritish huquqiga ega korxona mulkdor va vakolatli organning qaroriga muvofiq, operativ boshqarish huquqiga ega korxona O‘zbekiston Respublikasi mulki asosida O‘zbekiston hukumati qaroriga asosan tashkil etiladi. Qarorga ko‘ra 22 obyekt Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari NNT, moddiy texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek, davlat mulkini samarali boshqaruvini ta’minlash maqsadida davlat organiga va boshqa tashkilotlarga bepul o‘tkazildi. Qaror obyektlarni baholash tashkilotlari aniqlagan qiymatlarda qabul qilish va saqlanishini ta’minlash hamda samarali foydalanish erishishga qaratilgan. O‘tkazilayotgan obyektlarga operativ boshqarish huquqi tuman xokimiyatlariga berilgan. YUqoridagi VM-2014 yil 28 martdagি 75-son qaror bo‘yicha masalan, Toshkent shahar xokimligi tizimida 2015 yil boshida faoliyat ko‘rsatayotgan boshqarma va tashkilot 90ga yaqin bo‘lib, shulardan Toshkent shahri hokimligining davlat unitar korxonalari:

- "Toshissikkuvvati" ishlab chiqarish birlashmasi;
- "Suvsoz";
- "Toshkentgazta’mnot";
- "Toshshaxarnur";
- "ToshkentboshplanLITI";
- "Toshkenttenderkonsalting";
- "Toshkent favvorasi";
- "Toshkent reklama servis“ va boshqalar faoliyat ko‘rsatadi.

Davlat mulkini samarali foydalanishda asosiy mas’ullar:

- Toshkent shaxar monopoliyadan chiqarish va rakobatni rivojlantirish hududiy boshkarmasi;
- Davlat mulk kumitasining Toshkent shaxar hududiy boshkarmasi;

- Toshkent shaxar xokimligi "YAgona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi;
- Toshkent shaxar binolardan foydalanish departamenti;
- ma'muriy binolardan foydalanish direksiyasi kabilardir

10.4. Mulkni davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga bepul o'tkazish

Vazirlar Mahkamasining 2004- yil 25- iyundagi 295-son Aksiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aksiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarori maqsadi:

Xususiy lashtirilgan korxonalarning ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakillari va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilarning faoliyati samaradorligini oshirish, davlat aktivlarini professional investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilarga ishonchli boshqaruvga berish jarayonlarini jadallashtirishdan iborat.

2-ilovada Aksiyadorlik birlashmalari va kompaniyalaridagi aksiyalar davlat ulushidan samarali foydalanilishi ustidan monitoring olib borish komissiyasi to'g'risida nizom keltirilgan. Komissiyaning asosiy vazifalari:

- xo'jalik jamiyatlari ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- davlat ulushi investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilarga boshqaruvga berilgungacha bo'lgan muddatga respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish bo'yicha davlatning ishonchli vakilini tayinlash, shuningdek ularni yuklangan vazifalardan ozod qilish;

- respublika iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushlarini ishonchli boshqarish huquqi uchun o'tkazilgan tanlovlardan natijalarini tasdiqlash;

Komissiyaning asosiy vazifalari:

- xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondidagi davlat ulushi bo‘yicha dividendlar davlat byudjetiga to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash ishlarini tashkil etish;
- xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, davlat ishonchli vakillari va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilarning aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanayotgan davlat vakillarining davlat ulushlarini boshqarish bo‘yicha faoliyatlarining natijalari to‘g‘risidagi axborotlarini muntazam ravishda eshitib borish belgilangan.

10.5. Xususiyashtirilgan korxonalarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish vakolati

Xususiyashtirilgan korxonalarining ustav fondidagi davlat ulushini boshqarish vakolati komissiya vazifalari:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, korxonalar boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek jalb qilingan xorijiy ekspert kompaniyalar va maslahatchi-konsultantlarning sotishdan oldingi tayyorgarlik hamda yakka tartibdagi loyihalar bo‘yicha xususiyashtiriladigan obyektlarni sotish masalalari bo‘yicha birgalikdagi faoliyatini tashkil etish;
- oshkorlik, baholashning xolisligi va talablarning yagonaligi asosida tender qatnashchilari uchun teng raqobat shart-sharoitlari yaratish;
- tender savdolari asosida sotiladigan korxonalarining davlat aktivlarini xarid qilishga nomzodlarning eng manfaatli takliflari tanlovini o‘tkazish;
- davlat korxonalarini xorijiy investorlar ishtirokida xususiyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan Prezident va Hukumat hujjatlarining so‘zsiz bajarilishini tashkil etish, respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni keng jalb qilish, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi rolini yanada rivojlantirish va oshirish;
- sansalorlik, byurokratizmning paydo bo‘lishi va obyektlarni xususiyashtirish, shu jumladan xorijiy investorlar ishtirokida xususiyashtirish hamda aksiyalar paketlarini va korxonalarini to‘liq tanlov (tender) savdolari g‘oliblariga sotishni

jadallashtirish bilan bog‘liq masalalarini hal etish muddatlari cho‘zib yuborilishi hollarini bartaraf etish;

- iqtisodiyot tarmoqlarida Davlat komissiyasi qarorlari qabul qilingan xususiyashtirilgan korxonalar va obyektlarning faoliyati ustidan monitoring tashkil etish.

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi. 15.08.2017 y.

1. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.

2. Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.

3. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. T. Moliya. 2007. 320 b.

4. Keyns J.M. Ovsha teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl. – M.: Ekonomika, 2010.

11-bob. DAVLAT MULKI OBYEKTALARINI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONINI JADALLASHTIRISH

Reja

11.1. Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga aylantirishning takomillashtirilishi

11.2. Davlat aksiyalari va ulushlarini sotishning takomillashtirilishi

11.3. Davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning qabul qilinishi

11.4. Tender savdolarini o‘tkazishning takomillashtirilishi

11.5. Xaridorlar tomonidan tanlov va ochiq savdolardagi oldi-sotdi shartnomalari bajarilishi nazorati

Mashg`ulot maqsadi: davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga aylantirishning takomillashtirishini maqsad va vazifalarini aytadi;
- Davlat aksiyalari va ulushlarini sotishning takomillashtirishni aytadi va tavsif beradi;
- Davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning qabul qilinishini bayon etadi;
- Xaridorlar tomonidan tanlov va ochiq savdolardagi oldi-sotdi shartnomalari bajarilishi nazoratiini o‘rganadi.

11.1. Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga aylantirishning takomillashtirilishi

Vazirlar Mahkamasining 279-sonli 2014- yil 6- oktyabrdagi -“Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” maqsadi prezident qarori hamda prezident qarori-2200-2014 yil 3- iyuldagagi «Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga muvofiq:

- davlat mulki obyektlarini xususiyashtirish tartibini takomillashtirish, ularni sotish mexanizmlari va tartibotlari samaradorligini oshirish, shuningdek davlat mulki obyektlari bilan bitishuvlarni amalga oshirishda ommaviylik va oshkoraliyki ta'minlash;

- aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xo'jalik jamiyatiga aylantirish tartibotlarini belgilaydi.

Davlat tashkilotlarini o'zgartirish tashabbuskorlar davlat organi

o'zgartirilayotgan davlat tashkilotlari muassisleri takliflari, nodavlat yuridik shaxslarning, jismoniy shaxslarning buyurtmanomalari tashabbuskorlarga muvofiq Prezident (Vazirlar Mahkamasi) qarorlari bilan tasdiqlanadigan xususiyashtirish dasturlari shakllantiriladi.

Davlat tashkiloti o'zgartirilayotgan xo'jalik jamiyati shaklini tanlash, ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini, uning faoliyati samaradorligini va ishlab chiqarish ko'lamlarini oshirish darajasini, asosiy vositalari qiymatini va o'zgartirilayotgan davlat tashkiloti muassisining takliflarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Davlat tashkilotini o'zgartirish natijasida tashkil etilayotgan xo'jalik jamiyatining muassisi, Davlat raqobat qo'mitasi(hududiy organ) bo'lishi mumkin.

11.2. Davlat aksiyalarini va ulushlarini sotishni takomillashtirilishi

Vazirlar Mahkamasining 279- sonli 2014-yil 6- oktyabrdagi Davlat aksiyalarini sotish tartibi to'g'risida nizomda

- davlat aksiyalarini sudning qarori asosida;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan zarar ko'rib ishlayotgan,
- past rentabelli va quvvatlardan past darajada foydalanayotgan sanoat va qurilish sohasidagi korxonalardagi davlat aksiyalarini «nol» xarid qiymati bo'yicha sotishda yuzaga keladigan munosabatlarga tatbiq etilmasligi belgilangan. Davlat aksiyalarini sotish sotuvchi tomonidan davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining yoki emitentning takliflariga, nodavlat yuridik shaxslarning, jismoniy

shaxslarning buyurtmanomalari xususiylashtirish dasturlari muvofiq shakllantirilgan sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu borada quyidagi asosiy tushunchalar mavjud:

- **davlat mulki obyekti** — mulk huquqi bilan davlatga tegishli bo‘lgan mulkiy kompleks (korxona), binolar va inshootlar, qurilishi tugallanmagan obyektlar;
- **sotuvchi** — O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hududiy organi;
- **Davlat tender komissiyasi** — Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat komissiyasi;
- **hududiy tanlov komissiyasi** — tegishli ravishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari boshqaradigan hamda tarkibiga Davlat raqobat qo‘mitasi (tanlov komissiyasi raisining o‘rnbosari sifatida), Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi hududiy organlarining rahbarlari kiradigan tanlov komissiyasi;
- **ishchi organ** — O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining hududiy organi;
- **talabgor** — taklif etilgan shartlarda tanlovda qatnashish niyatini bildirgan nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs, shu jumladan yuridik yoki jismoniy shaxs.

11.3. Davlat ko‘chmas mulk obyektlarini sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning qabul qilinishi

Ijtimoiy majburiyatlar — davlat mulki obyektini sotib olishda pul qiymatiga ega bo‘limgan va qonun hujjatlariiga zid bo‘limgan shakllarda amalga oshirish yuzasidan xaridor tomonidan qabul qilinadigan majburiyatlar hisoblanadi.

Davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish va tanlov shartlarini tayyorlash tartibida auksion yoki tanlov o‘tkazish va ofertaga taklif etish yakunlariga ko‘ra ilgari sotilmagan davlat mulki obyektlari qatoridan, tuman (shahar) hokimligi,

balansda saqlovchilar takliflari va hududiy tanlov komissiyalari qarorlari asosida ro‘yxat shakllantiriladi. Bunda quyidagi shartlarga amal qilinishi lozim:

- korxonaning shahar tashkil etuvchi va respublika uchun strategik ahamiyatga ega emasligi;
- auksionlar yoki tanlovlardan o‘tkazish va oferta qilishga taklifnomalar yakunlariga ko‘ra ilgari sotilmagan davlat mulki obyektlari;
- korxonaning ishlamayotganligi, surunkali zarar ko‘rib ishlashi, past rentabelliligi (5 foizdan yuqori bo‘lmagan), iqtisodiy nochorligi va to‘lovga qodir emasligi;
- davlat mulki obyektida muhandislik kommunikatsiyasi turlaridan (gaz ta’minoti, elektr ta’minoti, suv ta’minoti, kanalizatsiya, kirish yo‘llari) birining yoki bir nechtasining mavjud emasligi;
- aholi punktidan tashqarida joylashganligi;
- ikki yildan ortiq bo‘sh turganligi yoki foydalanilmayotganligi;
- qurilishi tugallanmaganligi va qurilishni tugatish uchun moliyalashtirish manbaiga ega emasligi;
- tugatish jarayonida sotilmaganligi va mahalliy davlat hokimiyati organlariga berilganligi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyorida bo‘lgan past likvidli obyektlarga, keyinchalik xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tashkil etish uchun aniq investitsiya majburiyatlari qabul qilish sharti bilan, xorijiy investorlardan buyurtmanoma mavjudligi.

Ro‘yxatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha davlat tender komissiyasi davlat mulki obyektlarini sotishning maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida, davlat mulki obyektlarining ro‘yxatini tasdiqlash va xususiylashtirish dasturi bo‘yicha takliflar tayyorlash to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

11.4.Tender savdolarini o‘tkazishning takomillashtirilishi

Davlat mulkini Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat komissiyasi qarorlari bo‘yicha sotish tartibi to‘g‘risidagi

nizom davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat tender komissiyasi qarorlariga muvofiq xususiy lashtirish tartibida nodavlat yuridik shaxslarga, jismoniy shaxslarga investitsiyalarni jalg etgan holda davlat mulkini sotish bo‘yicha tanlovlarga tayyorgarlik ko‘rish, ularni tashkil etish hamda o‘tkazish shartlari va tartibini belgilaydi.

Tanlovda ishtirok etish shartlari quyidagilardan iborat:

- faoliyatning tavsiya etiladigan (davlat mulki obyektidan foydalanish) shakli;
- investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning eng kam miqdori;
- investitsiyalarni kiritish muddati;
- yaratiladigan ish o‘rinlari soni;
- qatnashchilarga talablar;
- boshqa majburiyatlar (zaruriyat bo‘lganda).

Hududiy tanlov komissiyasi xorijiy investorning taklifini kelgusida samarali faoliyat ko‘rsatish, modernizatsiya qilish hamda davlat mulki obyektining to‘lov qobiliyatini tiklash va davlat mulki obyektini barqaror rivojlantirish uchun investitsiyalarning etarligi va asoslanganligi yuzasidan ko‘rib chiqadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini tashkil etish uchun davlat mulki obyektini «nul» xarid qiymati bo‘yicha aniq investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar evaziga xorijiy investor bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan xorijiy investorga davlat mulki obyektini investitsiyaviy majburiyatlar bilan sotishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Davlat raqobat qo‘mitasiga xulosa kiritadi.

11.5. Xaridorlar tomonidan tanlov va ochiq savdolardagi oldi-sotdi shartnomalari bajarilishi nazorati

Vazirlar Mahkamasi 2014- yil 6- oktyabr 279-sonli 7-ILOVA-“Davlat mulki obyektlarini tanlov savdolarida va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish yo‘li bilan sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning eng kam miqdorini va turlarini belgilash, shuningdek davlat mulki obyektlarining oldi-sotdi shartnomalarining xaridorlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizom davlat mulki obyektlarini tanlov savdolarida va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish

yo‘li bilan sotishda investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlarning eng kam miqdorini va turlarini belgilash, shuningdek davlat mulki obyektlarining oldi-sotdi shartnomalarining xaridorlar tomonidan bajarilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Xaridor tomonidan investitsiyaviy va ijtimoiy majburiyatlar davlat mulki obyektining oldi-sotdi shartnomasiga muvofiq qabul qilinadi va quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- o‘tkazilgan pul mablag‘lari va xaridorning faoliyatidan olingan foydani, shu jumladan, uning ulushiga hisoblangan dividendlarni qayta investitsiyalash;
- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash uchun xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar, ehtiyyot qismlar va butlovchi buyumlar etkazib berish;
- ta’mirlash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish;
- investitsiyalash obyektining O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti oldidagi qarzlarini, kreditlar va boshqa majburiyatlarini to‘liq yoki qisman to‘lash;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning muayyan turini ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;
- nou-xauni, intellektual mulkning boshqa turlarini joriy etish;
- kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlashga xarajat qilish;
- faoliyat sohasini saqlab qolish;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa shakllar.

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.
2. Pindayk R.,Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.

3. Betell T. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. Moskva: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Ovshaaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl. – M.: Ekonomika, 2010.

12-bob. KO`CHMAS MULKNI BAHOLASH VA RIELTORLIK FAOLIYATINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Reja

12.1. Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari va huquqiy – me’yoriy asoslari.

12.2. Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari

12.3. Rieltorlik faoliyatining amalga oshirish

Mashg`ulot maqsadi: ko‘chmas mulkni baholash va rieltorlik faoliyatining institutsional asoslari bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari va huquqiy – me’yoriy asoslarini maqsad va vazifalarini aytadi;
- Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillarini aytadi va tavsif beradi;
- Rieltorlik faoliyatining amalga oshirishini bayon etadi;

12.1. Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari va huquqiy – me’yoriy asoslari

Baholash tamoyillari bozorda ko‘chmas mulk holati tahlil qilinadigan nuqtai nazarlarni shakllantiradi va belgilaydi. Qiymat baholangan vaqtida, baholash obyektini turli nazarlardan tartib bilan ko‘rib chiqish va tahlil etish amaliyotda keng qo‘llaniladi. Baholash tamoyillari - foydalanuvchilarning, mulkchilik komponentlarining o‘zaro munosabatlarini, ko‘chmas mulk bozorini va mulkdan eng yaxshi va samarali foydalanish nuqtai nazarlarini aks ettiradi. Foydalanuvchining nuqtai nazarini aks ettiruvchi vaziyat asosida quyidagi tamoyillar yotadi: - foydalilik tamoyili; - o‘rindoshlik tamoyili; - kutish tamoyili. Foydalilik tamoyili – bu muayyan ko‘chmas mulkning foydalanuvchi ehtiyojlarini qoniqtirish qobiliyati.

Ko‘chmas mulk muayyan foydalanuvchi uchun uning iqtisodiy, shaxsiy va h.k. ehtiyojlarini amalga oshirish foydali bo‘lgan taqdirdagina qiymatga ega bo‘ladi.

Masalan, agarda kimdir ko‘chmas mulk uchun pul to‘lashga tayyor bo‘lsa va shu bilan birga mulkdorga daromad keltirsagina bu ko‘chmas mulk foydalidir.

Ko‘chmas mulk o‘z egasini faxrlantirsa yoki mulk egasining oilaviy ehtiyojini qoniqtirsagina foydalidir. O‘rindoshlik tamoyili shundan iboratki, bunda ko‘chmas mulkning eng yuqori bahosi, o‘xhash foydalilikka ega boshqa obyekt sotib olinadigan eng kam summa bilan belgilanadi. O‘ziga xos, tadbirkor xaridor mahalliy bozorda bir xil foya foyda keltiruvchi o‘xhash obyekt qiymatidan ko‘proq pulni obyekt uchun to‘lamaydi. Bunday xaridor yangi obyekt qurilishi qiymatidan ko‘proq mablag‘ni mulk uchun sarflamaydi. Kutish tamoyili bo‘lajak foydalarga va ularning hozirgi qiymatiga nisbatan foydalanuvchining nuqtai nazarini belgilaydi.

Kelgusi foydalarni kutish ularning miqdorini va o‘ziga xos tomonlarining o‘zgarishi ehtimoli bilan bohlangan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida, mulkning haqiqiy qiymatiga ta’sir etishi mumkin. Kutish tamoyillarining asosida vaqt mobaynida pul qiymatining o‘zgarishi nazariyasi yotadi. Mulk qismlarining o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi pozitsiya asosida quyidagi tamoyillar yotadi: - qo‘sishimcha ma’suldarlik tamoyili; - hissa tamoyili; - o‘suvchi va kamayuvchi samaradorlik tamoyili; - balanslilik (proporsionallik) tamoyili; - optimal miqdorlar tamoyili; - iqtisodiy bo‘linish tamoyili.

Qo‘sishimcha ma’suldarlik mehnat, mablag‘ va boshqaruv xarajatlar qoplagandan keyin, erga taalluqli sof daromad bilan belgilanadi. Mazkur tamoyil tovarlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar uchun ishlab chiqarishning to‘rtta omili mavjudligi va zarurligi to‘g‘risidagi mumtoz iqtisodiy nazariya qoidasini aks etiradi. Bular er, mehnat, mablag‘ va boshqaruv omillaridir. Shu mavjud omillardan lozim darajada foydalanganda daromad qilish va ularga sarflangan xarajatlar qoplanganidan keyin qolishi mumkin bo‘lgan qo‘sishimcha qiymat erga taalluqlidir.

Qo‘sishimcha ma’suldarlik shuning natijasida hosil bo‘ladiki, er sotuvlaridan keladigan foydani ko‘paytirish, xarajatlarni kamaytirish yoki alohida ehtiyojlarni qondirish hisobiga qo‘sishimcha daromadlar olish imkonini beradi. Quyidagi 1-jadvalda turli er obyektlari miqdori uchun foya hisob- kitobi namunasi misol sifatida keltirilgan:

1-jadval

Yer obyektlari miqdori hisobi.¹⁹

Obyektlar soni	Bitta obyektdan tushgan foyda, (so‘m)	Umumiyl foyda, (so‘m)
1	8000	8000
2	12000	24000
3	10000	30000
4	8000	32000
5	6000	30000
6	4000	24000

Umumiyl foyda miqdorlarining raqamli tartibi shuni ko‘rsatadiki, chegaraviy samaradorlikning kamayish nuqtasi 4 ta obyektga to‘g‘ri keladi, ya’ni obyektlar sonining bundan keyin ko‘payishi umumiyl daromadning kamayishiga olib keladi. Balans tamoyili shundan iboratki, yerning eng katta qiymatiga erishiladigan ishlab chiqarish omillarining maqbul birikmasi istalgan turdagি mulk uchun to‘g‘ri keladi.

Agar muvozanat tamoyili buzilsa, unda «kam yaxshilangan» yoki «ortiqcha yaxshilangan» mulk paydo bo‘ladi. Bunday hollarning har bittasida erdan samarasiz foydalanganlik tufayli u o‘z qiymatini yo‘qotadi, bunday mulk bilan ehtimolli bitishuvlar bo‘yicha tavakkal ortadi. Muvozanat tamoyili nafaqat alohida mulk, balki daha, tuman, shahar uchun ham qo‘llanishi mumkin. Iqtisodiy o‘lchov tamoyili shu to‘g‘risida so‘z yuritadiki, har bir bozorda maqbul er maydoni mavjud bo‘lib, u mulkning turli xillaridan eng samarali foydalanish uchun zarurdir. Qurilishning maqbul hajmi uning ish yo‘nalishi va maqsadi bilan belgilanadi.

Masalan, avtomobillar to‘xtash joyining yo‘qligi katta universam uchun qiymatni kamaytirishi mumkin va aksincha, juda katta er maydoni qo‘shimcha daromad keltirmaydi. Bir necha uchastkalar birlashtirilishi orqali hosil bo‘ladigan arning o‘sish qiymati iqtisodiy o‘lchov tamoyilining tadbiq etilishiga misol bo‘la

¹⁹ Кўчмас мулкни баҳолашнинг асосий тамойиллари

oladi. Bunday birlashuv natijasida erdan yanada samarali foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Masalan xar xil o‘lchovga ega bo‘lgan A va V uchastkalarini ko‘raylik:

12.2. Ko‘chmas mulkni baholashning asosiy tamoyillari

Baholash tamoyillari bozorda ko‘chmas mulk holati tahlil qilinadigan nuqtai nazarlarni shakllantiradi va belgilaydi. Qiymat baholangan vaqtda, baholash obyektini turli nuqtai nazarlardan tartib bilan ko‘rib chiqish va tahlil etish amaliyotda keng qo‘llaniladi. Baholash tamoyillari - foydalanuvchilarning, mulkchilik komponentlarining o‘zaro munosabatlarini, ko‘chmas mulk bozorini va mulkdan eng yaxshi va samarali foydalanish nuqtai nazarlarini aks ettiradi.

Foydalanuvchining nuqtai nazarini aks ettiruvchi vaziyat asosida quyidagi tamoyillar yotadi: - foydalilik tamoyili; - o‘rindoshlik tamoyili; - kutish tamoyili. Foydalilik tamoyili – bu muayyan ko‘chmas mulkning foydalanuvchi ehtiyojlarini qoniqtirish qobiliyati. Ko‘chmas mulk muayyan foydalanuvchi uchun uning iqtisodiy, shaxsiy va h.k. ehtiyojlarini amalga oshirish foydali bo‘lgan taqdirdagina qiymatga ega bo‘ladi. Masalan, agarda kimdir ko‘chmas mulk uchun pul to‘lashga tayyor bo‘lsa va shu bilan birga mulkdorga daromad keltirsagina bu ko‘chmas mulk foydalidir. Ko‘chmas mulk o‘z egasini faxrlantirsa yoki mulk egasining oilaviy ehtiyojini qoniqtirsagina foydalidir.

O‘rindoshlik tamoyili shundan iboratki, bunda ko‘chmas mulkning eng yuqori bahosi, o‘xshash foydalilikka ega boshqa obyekt sotib olinadigan eng kam summa bilan belgilanadi. O‘ziga xos, tadbirkor xaridor mahalliy bozorda bir xil foyda keltiruvchi o‘xshash obyekt qiymatidan ko‘proq pulni obyekt uchun to‘lamaydi. 14 Bunday xaridor yangi obyekt qurilishi qiymatidan ko‘proq mablag‘ni mulk uchun sarflamaydi. Kutish tamoyili bo‘lajak foydalarga va ularning hozirgi qiymatiga nisbatan foydalanuvchining nuqtai nazarini belgilaydi. Kelgusi foydalarni kutish ularning miqdorini va o‘ziga xos tomonlarining o‘zgarishi ehtimoli bilan bohlangan bo‘lib, bu esa o‘z navbatida, mulkning haqiqiy qiymatiga ta’sir etishi mumkin. Kutish tamoyillarining asosida vaqt mobaynida pul qiymatining o‘zgarishi nazariyasi yotadi. Mulk qismlarining o‘zaro munosabatlarini aks ettiruvchi pozitsiya asosida quyidagi

tamoyillar yotadi: - qo'shimcha ma'suldorlik tamoyili; - hissa tamoyili; - o'suvchi va kamayuvchi samaradorlik tamoyili; - balanslilik (proporsionallik) tamoyili; - optimal miqdorlar tamoyili; - iqtisodiy bo'linish tamoyili.

Qo'shimcha ma'suldorlik mehnat, mablag' va boshqaruv xarajatlar qoplagandan keyin, erga taalluqli sof daromad bilan belgilanadi. Mazkur tamoyil tovarlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar uchun ishlab chiqarishning to'rtta omili mavjudligi va zarurligi to'g'risidagi mumtoz iqtisodiy nazariya qoidasini aks etiradi. Bular er, mehnat, mablag' va boshqaruv omillaridir.

SHu mavjud omillardan lozim darajada foydalanganda daromad qilish va ularga sarflangan xarajatlar qoplanganidan keyin qolishi mumkin bo'lgan qo'shimcha qiymat erga taalluqlidir. Qo'shimcha ma'suldorlik shuning natijasida hosil bo'ladiki, er sotuvlaridan keladigan foydani ko'paytirish, xarajatlarni kamaytirish yoki alohida ehtiyojlarni qondirish hisobiga qo'shimcha daromadlar olish imkonini beradi. 15 Masalan, bozor avj olgan joydagi do'konda, shunga o'xhash shahar chekkasida joylashgan do'konga nisbatan tovarlar ko'proq sotiladi.

12.3. Rieltorlik faoliyatining amalga oshirish

Bugun mamlakatimiz aholisining turmush sifati va darajasi oshib borayotgani, xususiy sektor vakillari safi tobora kengayib, iqtisodiy salohiyati ortayotgani ko'chmas mulk bozori jadal sur'atda rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Ijtimoiy inshoot hamda obyektlarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, yangi uy-joylar barpo etish ishlari samarasida ko'chmas mulk bozorida talab hamda taklif mutanosibligi ta'minlanayapti.

Ko'chmas mulk bozorida axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatadigan rieltorlik tashkiloti - eng kam oylik ish haqining kamida 100 baravariga teng miqdorda ustav kapitaliga ega bo'lishi kerak.

Ko'chmas mulk obyektlariga va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish chog'ida vositachilik qiladigan rieltorlik tashkilotidan esa eng kam oylik ish haqining kamida 500 baravariga teng miqdorda ustav kapitalini shakllantirish talab qilinadi.

Ko‘chmas mulk obyektlarini ishonchli boshqarishni amalga oshiradigan rieltorlik tashkilotining ustav kapitali hajmi eng kam oylik ish haqining kamida 1000 baravariga teng miqdorda bo‘lishi zarur.

Ko‘chmas mulk obyektlari va ularga bo‘lgan huquqlar savdosini tashkil etadigan rieltorlik tashkiloti eng kam oylik ish haqining kamida 3000 baravariga teng miqdordagi ustav kapitali asosida o‘z faoliyatini yuritish huquqiga ega.

“Rieltorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hayotga tatbiq etilishi bilan mehnat bozorida rieltorlik kasbining o‘rni va mavqeい oshdi. E’tiborlisi, hozirgi kunda mazkur jabhada bir yarim mingdan ziyod kishi mehnat qilayapti. Qonunga ko‘ra, rieltorlik faoliyatini yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishi mumkin.

Bunda jismoniy shaxs bo‘lgan rieltorga litsenziya ko‘chmas mulk bozorida faqat axborot va maslahat xizmatlari ko‘rsatish uchun berilayotir. Rieltorlik tashkiloti esa ariza berish orqali ko‘chmas mulk obyekti va unga bo‘lgan huquqlarga doir bitimlarni tuzish chog‘ida vositachilik qilish, ko‘chmas mulk obyektlari hamda ularga bo‘lgan huquqlarning savdosini tashkil etish, ko‘chmas mulk obyektlarini ishonchli boshqarish, ko‘chmas mulk bozorida axborot va maslahat xizmatlari kabi bir yoki bir necha turdagi xizmatlarni ko‘rsatmoqda.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi. 15.08.2017 y.
2. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan)-T.: “SHarq”, 2002-448b.
3. Betell T. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. -T.: Moliya, 2007. -320 b.
5. Keyns J.M. Obshaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl.: – M.: Ekonomika, 2010.

13-bob. IQTISODIYOTDA XUSUSIY MULKNING ULUSHI

Reja:

13.1. Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushini oshirishning ahamiyati

13.2. Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish bo`yicha chora tadbirlarning zarurligi

13.3. Xususiy mulk rivojlantirish mexanizmi

Mashg`ulot maqsadi: iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi bo`yicha umumiylashtirishni shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushini oshirishning ahamiyatini maqsad va vazifalarini aytadi;
- Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish bo`yicha chora tadbirlarini aytadi va tavsif beradi;
- Xususiy mulk rivojlantirish mexanizmiini bayon etadi.

13.1. Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushini oshirishning ahamiyati

Iqtisodiyot tarmoqlarida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, zarar ko‘rib ishlayotgan, past rentabelli va iqtisodiy nochor korxonalarni layoqatli investorlarga sotish orqali ularni qayta tiklash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. SHu bois keyingi yillarda bu boradagi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Natijada davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni tobora rivojlanib, ishbilarmonlar tomonidan ularning negizida tashkil etilgan yangi subyektlarda tayyorlanayotgan mahsulot hajmi ortib, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yanada yaxshilanmoqda.

Ta’kidlash joizki, Prezidentimizning 2015- yil 28- apreldagi “Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

Mazkur hujjatga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz”, “O‘zkimyosanoat”, “O‘zbekengilsanoat”, “O‘zqurilishmateriallari”, “O‘zeltexsanoat”, “O‘zavtosanoat”,

“O‘zvinosanoat-xolding”, “O‘zagrosanoatmash-xolding” kompaniyalari hamda Qishloq va suv xo‘jaligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirliklariga qarashli aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondidagi davlat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlarining ulushlari strategik xorijiy investorlarga sotilishi belgilangan bo‘lsa, jumladan, “O‘zbekneftgaz” kompaniyasi va O‘zbekiston Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasiga qarashli 20 ta aksiyadorlik jamiyatida qo‘srimcha aksiyalarni muomalaga chiqarish, 343 ta aksiyadorlik jamiyatida esa xo‘jalik boshqaruvi organlarining davlat aktivlari va ulushlarini oshkora savdolarda xususiy mulk egaligi sharti bilan xorijiy investorlarga sotish ko‘zda tutilgan edi.

Davlat mulkini xorijiy investorlarga sotishda tender savdolarini o‘tkazish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2015-yil 25- maydagi qaroriga asosan, investorlarga bepul beriladigan 512 ta davlat obyektining tanlov savdolarida sotishning shartlari, jumladan, kiritilishi belgilangan investitsiya miqdori, muddati va yaratiladigan ish o‘rinlarining eng kam soni belgilab berildi. Birgina, “nol” xarid qiymati bilan tadbirkorlik subyektlariga berilishi mo‘ljallangan 512 ta obyektning xususiy mulkdorlarga sotilishi natijasida kamida 1072,19 mlrd so‘m miqdorida investitsiya kiritish hamda 20122 tadan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish hisob-kitob qilindi.

2014- yil 3- iyuldagagi “Davlat mulki obyektlarini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotish borasidagi qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori yangi band bilan to‘ldirildi. Ya’ni endilikda belgilangan yangi tartibga binoan, tegishlicha davlat korxonalarini xususiylashtirish vaqtida aniqlanmagan, lekin shu korxona hududida joylashgan ko‘char va ko‘chmas mulklar, shuningdek, korxonalar hududida joylashgan va ularga tasarruf etish huquqisiz berilgan ko‘char va ko‘chmas mulklar mazkur korxonalarining yoki ularning huquqiy vorislarining mulki sanaladi.

13.2. Iqtisodiyotda xususiy mulkning ulushi va ahamiyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning zarurligi

Strategik xorijiy investorlarga sotilishi lozim bo‘lgan 68 ta aksiyadorlik jamiyatidagi davlatga va xo‘jalik boshqaruvi organlariga tegishli ulushlarning sotilishi belgilangan. SHundan davlatga tegishli 27 ta ulushdan 10 ta ulushning

xususiyashtirilishiga tegishli hujjatlar to‘plami tayyorlanib, ommaviy savdolarga chiqarilishi ta’minlandi.

Ishlab chiqarishni yanada modernizatsiyalash, texnik qayta jihozlash, raqobatdosh mahsulotlar chiqarishni tashkillashtirish maqsadida oshkora savdolarda xususiy mulk egaligi sharti bilan xo‘jalik boshqaruvi organlarining, birinchi navbatda, xorijiy investorlarga sotilishi lozim bo‘lgan 229 ta korxona va xo‘jalik jamiyati davlat aktivlari hamda ulushlaridan 185 ta ulushning xususiyashtirilishiga tegishli hujjatlar to‘plami tayyorlanishi hamda ommaviy savdolarga chiqarilishi, 35 ta ulush sotilishiga, 512 ta davlat mulki obyekti, shu jumladan, qurilishi tugallanmagan obyektlardan 490 ta mulk 559,6 mlrd. so‘m investitsiya kiritish va 17144 ta ish o‘rni tashkil etish shartlari bilan sotilishiga erishildi.

Shu bilan birga, 88 ta davlat mulki obyekti oshkora savdolarda to‘liq xususiy mulk qilib sotilishi ta’minlandi. hozirgi kunning o‘zida 352 ta obyektni buzishdan bo‘shagan 115 gektardan ortiq er maydonidan 30 gektarga yaqini tadbirkorlarga o‘z biznes faoliyatlarini amalga oshirish uchun ajratib berildi.

“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda, shubhasiz, muhim huquqiy asos bo‘lganini aytish zarur. Unga ko‘ra, mulkdorlar huquqlarining kafolatlari yanada kuchaytirilib, xususiy mulk huquqining muddatsizligi aniq belgilab qo‘yildi.

Mulkdorga foydasiz shartlarni yuklash, jumladan, ulardan mol-mulkini, moliyaviy mablag‘larini topshirishni talab qilish, mulkdor faoliyatiga aralashish, uning mol-mulkini qo‘lga kiritishga yoki xususiy mulkiga bo‘lgan huquqlaridan voz kechishiga majbur qilish qat’iy taqiqlandi. 2015-yil 15- maydagi PF – 4725-sonli “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon bilan Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni

jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dastur doirasida tadbirkorlik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ularga kengroq imkoniyatlar yaratib berish, xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma’muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirishni nazarda tutuvchi qonun hujjatlari qabul qilinganligi e’tiborga molik.

Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to‘sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirildi. Xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma’muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirilmoqda. Barcha turdagি ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni yanada soddalashtirildi.

13.3. Xususiy mulk rivojlantirish mexanizmi

2017- yilning 1- yanvaridan boshlab tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tetishirishlarning barcha turlari bekor qilinadi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tetishirilayotganda ularni huquqiy qo‘llab-quvvatlash masalari mamlakatimizda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari normalari va talablarining amalda ro‘yobga chiqarilayotganligini o‘rganish, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishiga ta’siri samaradorligini baholash, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish. soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini

yig‘ish xarajatlarini kamaytirish, masofaviy nazoratni keng joriy etish va soliq to‘lovchilarining huquqiy savodxonligini oshirishni ta’minlaydigan soliq ma’murchiligi sifati va samaradorligini yanada yaxshilash kabi masalalar doimo xukumat nazoratida bulmoqda.

Respublikaning eksport salohiyati o‘sishini, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalgan etishni va mahalliy ishlab chiqaruvchilarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishni rag‘batlantiradigan valyutani tartibga solishning va valyutalar kursi siyosatining ilg‘or bozor mexanizmlarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlari faoliyati yuzasidan qisqa muddatli tetishirishlarni tayinlash va o‘tkazishning aniq huquqiy asoslari hamda mezonlarini nazarda tutgan holda qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish lozim.

Mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.
2. Pindayk R.,Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.
3. Betell T.. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. Moskva: IRISEN. 2008-480 s.
4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.T. Moliya. 2007.320 b.
5. Keyns J.M. Ob‘shaaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl. – M.: Ekonomika, 2010.

**14-bob. XUSUSIY MULKNI, TADBIRKORLIK SUBYEKTTLARINI
ISHONCHLI HIMOYA QILISHNI YANADA KUCHAYTIRISH, ULARNI
JADAL RIVOJLANTIRISH**

Reja:

14.1. Xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan normalarning ahamiyati.

14.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni.

14.3. 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishida “xususiy mulkni va tadbirkorlik subyektlarni” rivojlantirish.

Mashg`ulot maqsadi: xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirish, ularni jadal rivojlantirish bo`yicha umumiy tasavvurlarni shakllantirish.

Mavzuni o‘rganish natijasida talaba:

- Xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan normalarning ahamiyatini maqsad va vazifalarini aytadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmonini aytadi va tavsif beradi;
- 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishida “xususiy mulkni va tadbirkorlik subyektlarni” rivojlantirishni bayon etadi.

14.1. Xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etishga qaratilgan normalarning ahamiyati.

1. Xususiy mulk va tadbirkorlik subyektlarning himoyasi²⁰

Konstitutsiyamiz va u asosda qabul qilingan qonunlar hamda ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yo‘li bilan tatbiq etilayotgan yangiliklarning tub negizida avvalo inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini mustahkam himoyalash, yurt farovonligi va aholi turmush darajasini yuksaltirish kabi ezgu maqsadlar tashkil etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish sohasiga davlat siyosati darajasida jiddiy e’tibor qaratilib, bu boradagi amaldagi qonunchilik tubdan isloh qilinayotganligini keyingi yillarda qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlari bilan belgilab berilayotgan yangi qonun-qoidalar to‘la tasdiqlaydi.

Xususan, 2015- yil 15- maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minalash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Respublikamiz Prezidentining PF-4725-son Farmoni,

20- avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘sqliarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirish, sohadagi turli to‘siq va cheklolvar mutloq bartaraf etish yo‘lida tashlangan navbatdagi dadil qadam bo‘lib, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushni oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratish va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur ruxsat berish tartib-taomillarining ro‘yxati va turlarini keskin qisqartirish uchun sari keng yo‘l ochdi.

Qonun asosida qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalgalashdi:

²⁰ ПФ-4725-сон Фармони.

- tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish;

- xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiliginu liberallashtirish jarayonini davom ettirish;

- barcha turdag'i ro'yxatdan o'tkazish, ruxsat berishva litsenziyalash, shuningdek. tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni yanada soddallashtirish;

- xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitini yaxshilash.

Quyida mazkur yangi qoidalar bilan belgilab berilayotgan tartibotlar va ularning tadbirkorlik faoliyati hamda xususiy mulkchilikni rivojlantirishdagi o'rni to'g'risida fikr yuritsak:

Tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan yana bir qulaylik sifatida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi 30¹-modda (Tadbirkorlik faoliyati subyektlariga berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llashning kafolatlari) bilan to'ldirilganligini alohida e'tirof etish zarur.

Unga ko'ra, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni qo'llash tartibini o'z vakolatlari doirasida tushuntirishlari, shuningdek ularning qo'llanilishini ta'minlashlari shartligi qt'iy belgilab berildi.

Eng e'tiborli jihat shundaki, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiylar, kafolatlar va huquqlar vakolatli organlarga va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlariga, davlat statistika organlariga, banklarga va boshqalarga) ularning yozma ravishdagi murojaatlarisiz berilishi ta'minlanadi.

Bunda, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalarning ruyxati O‘zbekiston Respublikasining Interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidagi Tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar va preferensiyalarning yagona reestrda elon qilinadi hamda doimiy ravishda yangilab boriladi.

Shuningdek, Farmon va Qonunda soliq to‘lashdan bo‘yin tov lash jinoyatini birinchi marta sodir etgan tadbirkor jinoyat aniqlangandan keyin 30 kun davomida davlatga etkazilgan zararni to‘liq qoplasa, penya va boshqa moliyaviy jarima turlarini to‘lasa, jinoiy ish qo‘zg‘atilmasligi va u javobgarlikdan ozod qilinishi belgilab qo‘yildi.


O‘z navbatida, davlat organlari mansabdor shaxslari tomonidan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillari bilan bog‘liq hujjatlarni berish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik, shuningdek imtiyozlar va preferensiyalarni qo‘llashni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish yoki ularni qo‘llashga to‘sinqilik qilish uchun ma’muriy javobgarlik, agar shu xatti-harakatlar bir yil ichida takrorlansa jinoiy javobgarlikka tortish amaliyoti joriy etildi.

Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishlarida davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan hujjatlarni talab qilmaslik majubriyati yuklatildi. Qonun bilan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilash masalasi tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biri ekanligi tan olindi.

Bundan tashqari, Farmon bilan 1 iyuldan boshlab yakka tadbirkorlarga, faoliyat turidan kelib chiqqan holda, bir nafardan uch nafargacha ishchi yollash huquqi berildi va har bir yollangan ishchi uchun eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida sug‘urta badali va 30 foizi miqdorida qat’iy soliqni to‘lash belgilandi.

Bunda yakka tadbirkor kasb-hunar kolleji bitiruvchisi yollagan bo‘lsa, kollejni tamomlaganidan e’tiboran o‘n ikki oy mobaynida qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan ozod etilishi belgilab qo‘yildi.

Qonunga muvofiq, jismoniy shaxs yoki oilaviy korxona turar joyidan yoki er uchastkasidan tadbirkorlik maqsadida foydalansa, mol-mulk va er soliqlarini jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan stavkalar bo‘yicha to‘lashi belgilandi. Ya’ni, mol-mulk solig‘i yuridik shaxslar uchun belgilangan 4 foizli emas, balki jismoniy shaxslar uchun belgilangan 1,3 foizli stavkada to‘lanadi.



Endilikda barcha turdag'i korporativ nizolar, ya’ni yuridik shaxsni tashkil etishdan tortib, uni qayta tashkil etish, tugatish, shuningdek yuridik shaxsning faoliyatidan kelib chiqadigan barcha nizolarning xo‘jalik sudlari tomonidan hal etilishi belgilanligi, eng avvalo, ta’sischi, aksiyadorlarning sudma sud ovora bo‘lib yurishlarini bartaraf etib berdi.

Qonun bilan yana bir muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangilik kiritilgan bo‘lib, endilikda mulkdorlar – xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risida davlat organlari va boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qarorlari, ular mansabdar shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilishda davlat bojini to‘lashdan ozod etildilar.

SHuningdek, amaldagi bir nechta qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilib, kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘lmish mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo‘jaliklari uchun muhr mavjud bo‘lishi shartligi talabi bekor qilindi.

Bunday yangi tartib-qoidalar davlat nazorat va boshqaruvin idoralari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini faoliyat olib borishiga har qanday to‘sinqinliklar, asossiz aralashuvlarini oldini olishga, yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarining so‘zsiz qo‘llanilishi hamda hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini tubdan soddalashtirishga qaratilgan kompleks choralar ko‘rishni, tegishli tashkilotlar va mansabdar shaxslar

zimmasiga ushbu jarayonlarda tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash pozitsiyasidan turib ishtirok etish mas'uliyatini yuklaydi.

14.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" qabul qilingan Farmoni, eng avvalo, xususiy mulkni xuquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo‘naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o‘tishidan dalolat beradi. Xususan, Farmon “kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta’minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmaslik”ni eng muhim ustuvor yo‘nalish va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamlaydi.

Ushbu maqsadlarda davlat organlariga, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga:

-o‘z faoliyatida belgilangan talablarning hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi tamoyilining so‘zsiz amalga oshirilishini ta’minlash, shu munosabat bilan o‘z vazifalarini va vakolatlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish;

-tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to‘sinqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to‘xtatib qo‘yganlik uchun mansabdar shaxslarning javobgarligi to‘g‘risidagi qonun hujjalari normalari talablari qat’iy

bajarilishini, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta'minlash topshirildi.

Ushbu norma davlat organlariga aybdor xodimlarga nisbatan nafaqat intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikning eng qat'iy choralarini qo'llash majburiyatini yuklabgina qolmasdan, balki tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita ushbu xodimlardan undirilishini ta'minlashni ham yuklaydi.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi noqonuniy tetishirishlarni tashkil etishga va ularni o'tkazishga, ayniqsa, davlat organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari oqibatida tadbirkorlik subyektlarining faoliyati asossiz to'xtatilishiga va zarar etkazilishiga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan.

Farmonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashishdan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat nazoratining prinsipial jihatdan yangi bir qator mexanizmlari belgilanmoqda.

Jumladan, 2017- yilning 1- yanvaridan boshlab quyidagi ilgari ko'rilmagan choralar joriy etiladi:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tetishirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, bundan yuridik shaxsning tugatilishi bilan bog'liq tetishirishlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tetishiruvlar mustasno;

shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tetishirishlarning barcha turlari bekor qilinadi.

Shunday qilib, nazorat qiluvchi organlar endilikda rejadan tashqari tetishirishlar o'tkazishni tashkil qilish huquqiga ega emas. Bunda fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini ta'minlash maqsadida faqat jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida qisqa muddatli tetishirishlar o'tkazishning cheklangan imkoniyati saqlanib qoladi. Bunday tetishirish faqat Respublika



kengashining qaroriga muvofiq o'tkazilishi mumkin va tetishirish muddati bir ish kuni bilan cheklangan.

Shu bilan birga, Farmon ma'muriy va jinoyat qonunchilagini liberallashtirish yo'lini davom ettirib, moliya-

xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda birinchi marta huquqbazarliklar sodir etgan tadbirkorlik subyektlari va ularning xodimlarini hamda tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan amalga oshirayotgan shaxslarni, ular tomonidan etkazilgan zararni qoplagan va huquqbuzilishi oqibatlarini belgilangan muddatlarda ixtiyoriy bartaraf etgan taqdirda, javobgarlikning barcha turlaridan ozod qilish kabi tubdan yangi choralarni nazarda tutadi. Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqidan mahrum qilish tarzidagi jinoiy jazo qo'llash taqilangan.

Ko'rsatib o'tilgan normalar tadbirkorlik subyektlarini ikki marta jazolashni istisno etibgina qolmay, balki birinchi marta huquqbazarlikni sodir etgan va o'z aybini yuvgan fuqarolarga o'zining tadbirkorlik faoliyatini salbiy oqibatlarsiz davom ettirish imkonini beradi, bu chora ularning ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirishga ham yo'naltirilgan.

Shu munosabat bilan Jinoyat kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga, Soliq kodeksiga va bir qancha boshqa qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalariga besh yil mobaynida ular ro'yxatdan o'tkazilgan sanada amalda bo'lган soliq stavkalari va boshqa majburiy to'lovlarini qo'llash huquqi beriladi.

Shuni qayd etish zarurki, ushbu imtiyoz investitsiya sifatida kiritilgan mablag'lar miqdoridan qat'i nazar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi barcha korxonalarga tatbiq etiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida qonunlar ijrosi ustidan Parlament nazorati shakllarini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil institutini tashkil etish mo'ljallanmoqda.



Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu institut tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilishni ta'minlashda, davlat tuzilmalari bilan munosabatlarda ularning manfaatlarini ifodalashda muhim o'rinn tutadi.

Farmon qoidalarini amalda ro'yobga chiqarish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash borasida beshta eng ustuvor soha bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat va biznesning o'zaro hamkorligidagi ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish, davlat resurslaridan foydalanishning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash doirasida umumiy e'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida bir qator qonunlarni, shu jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida", "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida", "Davlat xaridlari to'g'risida" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish nazarda tutilmoqda.

Dasturga muvofiq jinoyat ishlari bo‘yicha tetishirishlarni tayinlash va o‘tkazish tartibining aniq huquqiy tartibotini belgilash uchun "Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida"gi qonunga, Jinoyat-protsessual kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritiladi.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasida tergov qilishni amalga oshirishda noqonuniy aralishish imkonini beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga ko‘maklashadi.

Dasturda tadbirkorlik subyektlariga va ularning xodimlariga nisbatan ma’muriy jazolarni qo‘llash borasidagi vazifa va vakolatlarni bosqichma-bosqich sud organlariga o‘tkazish yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud tomonidan himoya qilishni kuchaytirish choralarini rejashtirilgan.

Ushbu choraning amalga oshirilishi tadbirkorlik subyektini tetishirgan nazorat qiluvchi organ tomonidan ma’muriy huqubzunarlik to‘g‘risidagi ishni mustaqil ko‘rib chiqish va bu orqali ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishdagi betaraflik va xolislikka ta’sir ko‘rsatuvchi amaliyotning bartaraf etilishiga yo‘naltirilgan.

Dastur, shuningdek, xo‘jalik sudsulari tizimiga sud majlislarini audio va video qayd etish mexanizmlarini joriy etish tadbirlarini, qabul qilingan qarorlarning veb-saytlarda e’lon qilinishini, hakamlar sudi qarorlarini majburiy ijro etishga ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ariza berishda tadbirkorlik subyektlarini davlat boji to‘lashdan ozod etishni ham o‘z ichiga oladi.

"Elektron hukumat" tizimini joriy etish doirasida davlat organlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarining vakolatli organlar bilan o‘zaro hamkorligining bevosita muloqot



qilmaydigan shakllarini kengaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlar mo‘ljallangan. Xususan, Dastur tadbirkorlik subyektlariga faqat davlat xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha yagona

markazlar orqali “yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari ro‘yxatini kengaytirishni nazarda tutadi.

14.3. 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo‘nalishida “xususiy mulkni va tadbirkorlik subyektlarni” rivojlantirish

O‘zbekiston Prezidenti 7- fevral kungi farmoni bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Bu haqda «O‘zbekiston» telekanalining «Axborot» dasturida ma’lum qilindi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarini kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e’lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o‘tdi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi.



- - I. Давлат ва жамият қурилиш тизимини таомиллаштириш
(**Мовий ҳаворанг** – осмон ва тоза сув рамзи, буюк Амир Темур давлатининг байроғининг ранги)
- - II. Конун устуворлигини таъминлаш ва суд-хукуқ тизимини янада ислоҳ қилиш
(**Сиёҳранг** – конунийлик элементлари хисобланган устуворлик ва ор-номуслилк рамзи)
- - III. Иқтисодиётни ривожлантириш ва эркинлаштириш
(**Тилларанг** – иқтисодиётни ривожлантириш элементлари хисобланган куч-кудрат ва бойлик рамзи)
- - IV. Ижтимоий соҳани ривожлантириш
(**Кизил ранг** – ҳаёт ва аҳолининг муносаб турмуш тарзини таъминлаш рамзи)
- - V. Ҳавфсизлик, диний бағрикенглик ва миллатлараро тутувлик, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат
(**Оқ ранг** – тинчликсеварлик сиёсати элементлари хисобланган тинчлик ва соғлик рамзи)

14.3- rasm 2017-2021 yillarda harakatlar strategiyasi²¹

²¹ <http://strategy.regulation.gov.uz>

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishari

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

- xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minalash, barcha turdagи to‘sил va cheklavlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan prinsipni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg‘armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo‘yicha tartib-taomill va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlarining rolini oshirish.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama

himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qabul qilingan Farmoni²², eng avvalo, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beradi.

Xususan, Farmon «kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmaslik»ni eng muhim ustuvor yo'naliш va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamlaydi.

Ushbu maqsadlarda davlat organlariga, eng avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi tuzilmalarga:

o'z faoliyatida belgilangan talablarning hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi tamoyilining so'zsiz amalga oshirilishini ta'minlash, shu munosabat bilan o'z vazifalarini va vakolatlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish;

tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashganlik va to'sqinlik qilganlik, ularning faoliyatini asossiz to'xtatib qo'yanlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi qonun hujjatlari normalari talablari qat'iy bajarilishini, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita aybdorlardan undirilishini ta'minlash topshirildi.

Ushbu norma davlat organlariga aybdor xodimlarga nisbatan nafaqat intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikning eng qat'iy choralarini qo'llash majburiyatini yuklabgina qolmasdan, balki tadbirkorlik subyektlariga etkazilgan zararning bevosita ushbu xodimlardan undirilishini ta'minlashni ham yuklaydi.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi noqonuniy tetishirishlarni tashkil etishga va ularni o'tkazishga, ayniqsa, davlat organlari

²² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 5 октябрдаги ПФ-4848-сон [Фармони](#)

xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari oqibatida tadbirkorlik subyektlarining faoliyati asossiz to‘xtatilishiga va zarar etkazilishiga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltirilgan.

Farmonda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga asossiz aralashishdan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta’minlashga yo‘naltirilgan davlat nazoratining prinsipial jihatdan yangi bir qator mexanizmlari belgilanmoqda.

Jumladan, 2017- yilning 1- yanvaridan boshlab quyidagi ilgari ko‘rilmagan choralar joriy etiladi:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tetishirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, bundan yuridik shaxsning tugatilishi bilan bog‘liq tetishirishlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to‘g‘risidagi murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga muvofiq o‘tkaziladigan qisqa muddatli tetishiruvlar mustasno;

shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tetishirishlarning barcha turlari bekor qilinadi.

Mustaqil ishslash uchun adabiyotlar ro`yxati:

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi.15.08.2017 y.

2. Pindayk R., Rubinfeld D. Mikroiqtisod(inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan). -T.: “SHarq”, 2002-448b.

3. Betell T. Sobstvennost i protsvetanie / Tom Betell ; per. s angl. B. Pinskera. -M.: IRISEN. 2008-480 s.

4. Razzoqov A.A. va boshqalar. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. -T.: Moliya, 2007. -320 b.

5. Keyns J.M. Obshaya teoriya zanyatosti i protsenta i deneg. / Per s angl. – M.: Ekonomika, 2010.

